

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Tarix-falsafa fakulteti

**Arxeologiya, qadimgi dunyo tarixi va
etnografiya kafedrası**

Eshnazarov Sh

Samarqand viloyatidagi xalq bayramlari, o‘yin va marosimlari

5220200 – Tarix bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi
Malakaviy bitiruv ishi

Ilmiy rahbar
Rasmiy taqrizchi

Djurakulova D.M.

Malakaviy bitiruv ishi arxeologiya, qadimgi dunyo tarixi va etnografiya kafedrasining 2011-yil 24-maydagi majlisida muhokama qilingan va YaDAKga himoya uchun tavsiya etilgan (№ 14-son bayonnoma).

Kafedra mudiri:

prof. Djurakulov M.D.

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2011-yil ____-iyundagi majlisida himoya qilingan va _____ ball bilan baholangan (№ ____-son bayonnoma).

YaDAK raisi

t.f.d. MATBOBOYEV B.X.

A‘zolari:

S A M A R Q A N D – 2011

M U N D A R I J A

Kirish.....	3-7.
I Bob. Samarqand viloyatidagi xalq bayramlari, o`yin va marosimlari ...	8-25.
1.1. Samarqand viloyatida navroz bayramining nishonlanishi.....	8-13
1.2. Samarqand viloyatidagi dexqonchilik bilan bog`liq urf-odatlar va marosimlar.....	14-22.
1.3. Samarqand viloyatidagi an`anaviy tadbirlar va milliy sport musobaqalari.....	23-25.
II Bob. Diniy tasavvurlar , urf-odatlar va irimlar.....	26-63.
2.1. Ibtidoiy diniy tasavvurlar, urf-odatlar va irimlar.....	26-37.
2.2. zardushtiylik va boshqa dinlar bilan bog`liq diniy tassavurlarning ijtimoiy xayotda aks etishi.....	38-53.
2.3. “Avesto” da atrof-muxit bilan bog`liq qarashlar.....	54- 57.
2. 4. O`zbeklarda ot bilan bog`liq xalq udumlari.....	58-63.
Xulosa.....	64
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	65-67.
Ilova.....	68-70.

Kirish

O'zbek xalqining ijtimoiy, oilaviy-maishiy va shaxsiy turmushida diniy tasavvurlar muhim o'rinni egallab kelgan. Din ibtidoiy jamoa tuzumidan hozirgacha xalqimiz ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi sifatida jamiyatning, oila va shaxs hayotining barcha hujayralarigacha singib ketgan. Uning ildizi eng qadimiy tosh davriga borib taqaladi va butun keyingi tarixiy taraqqiyot jarayonida turli shaklda namoyon bo'lib kelgan. Ургут туманида ҳам ўзбек халқининг маънавий мероси сифатида миллий урф одатларни кузатишимиз мумкин

Paleoantropologiya va arxeologiya fanlarining yutuqlariga qaraganda, insoniyat tarixida juda uzoq vaqt - bir necha o'n ming yillar davomida din bo'lmagan. Olimlarning fikricha, neolit, ya'ni yangi tosh davrida yashagan odamlar tabiatning dahshatli kuchlari oldida ojizligidan bir qator noto'g'ri xayoliy tasavvurlar ta'sirida bo'lganlar. Bunday holat ularni dafn marosimida ayrim irimlarga rioya qilishga undagan. Ba'zi neandertal makonlarda o'liklarning muayyan tartibda ko'mdirilganligi bunga dalildir. Shunga asoslanib, ayrim olimlar dastlabki diniy e'tiqodlar neandertallarda paydo bo'la boshlagan, degan fikrga kelganlar. Mazkur fikrni tasdiqlash uchun Janubiy O'zbekistondagi Teshiktosh g'orida ko'milgan 8-10 yashar neandertal bola jasadining suyaklari va boshqa topilmalarni ham ko'rsatadilar,

Bu makonda jasad muayyan holatda dafn qilingan, o'likning bosh suyagi tevaragida echki shoxlari yerga qadalgan, qisqa muddat yoqilgan olov izi mavjud. Balki olov ibodat bilan bog'liq marosim tufayli yoqilgandir, deb faraz qilinadi. Teshiktoshdagi jasad buklanib, yonboshlab uxlayotgan kishini eslatadi, uning oyoq-qo'li bog'langan bo'lishi ham mumkin. Mazkur ko'mish marosimi boshqa ibtidoiy qabilalarda hozirgacha saqyaanib kelgan. Masalan, Yangi Gvineya papuaslari o'lik qaytib kelib urug'doshlarga zarar yetkazmasin deb, jasadning qo'l-oyog'ini bog'lab dafn qiladilar.

Keyingi davrlarga oid ibtidoiy makonlar dafn qilish marosimlari din bilan bog'liq ekanligini aniq isbotlaydi. Qazilib tekshirilgan neolit va, ayniqsa, bronza (jez) davri go'ristonlarida har xil buyumlarning uchrashi o'sha davrdagi kishilarda dastlabki «narigi dunyo», oxirat to'g'risidagi tushunchalar ancha

shakllanganligidan dalolat beradi. Demak, arxeologik kashfiyotlar dufayli, dinning qachon paydo bo'lganligi, uning ilk shakllari to'g'risidagi ma'lumotlarni O'zbekiston hududidagi obidalar ham isbotlaydi.

Afsuski, arxeologik ma'lumotlar nihoyatda kam, ularni jonlantirish va to'ldirish, jonsiz buyumlarni «gapirtirish» uchun etnografik tadqiqotlarga murojaat qilishga to'ri keladi. Fanda qabul qilingan tasniflashga binoan, ibtidoiy dinning eng qadimiy shakllaridan biri totemizm bo'lib, u ilk urug'chilik jamiyati davrida paydo bo'lgan. «Totemizim» tushunchasi ayrim shaxsning yoki bir guruh kishilarning, urug' yoki qabilaning, ko'pincha, qandaydir bir hayvon yoki o'simlik bilan, ba'zan jonsiz buyum yoki tabiat hodisalari bilan g'ayritabiiy yaqinligi, hatto qon-qarindoshlik aloqasi bor, degan e'tiqodni anglatadi. Bu- dinga sig'inuvchilar o'zi yoki urug'ning barcha a'zolarini muayyan hayvon, o'simlik va boshqa narsadan kelib chiqqan degan tasavvurga tayanadi. Ayrim totemistik tasavvurlar sarqitlarini o'zbeklarning oilaviy-maishiy urf-odatlarida hozirgacha uchratish mumkin. Masalan, otga sig'inish va uning go'shtini iste'mol qilishdagi irimlar, muqaddas qushlar (kaptar, musicha va hokazo) va hayvonlarning suyagi (ayniqsa, kalla suyagi), tirnog'i, pari va hokazolarni tumor shaklida ishlatish, ba'zi jonivorlarning nomi bilan ayrim urug'lar yoki qabilalar (taka, qurt, serka va hokazo)ning atalishi, uylar va toklarda qo'chqor shoxining osib qo'yilishi kabilar totemistik tasavvurlar qoldiqyaari ekanligini tadqiqotchilar qayd qilganlar.

Yana bir qadimiy din shakllaridan fetishizm (portugalcha «feytisho» so'zidan olingan bo'lib, tumor, sehrlangan buyum degan ma'noni anglatadi) din taraqqiyotining barcha pog'onalarida ibodatning muhim elementi sifatida oddiy ilk dinlardan to hozirgi murakkab jahon dinlarigacha hammasi namoyon bo'lgan. Ammo qaysi davrda va qanday shaklda namoyon bo'lmasin, fetishizmning mohiyati shundaki, dahshatli tabiat yoki berahm ijtimoiy kuchlar oldida o'zlik qilgan odam xurofiy qo'rqinch tuyg'ulari asosida qandaydir g'ayritabiiy kuchdan madad kutadi, uning himoyasiga umid bog'laydi. Masalan, majusiylilikda qotib qolgan murdalarga «avliyo» deb sig'inish va ikona (Xudo tasviri)ga cho'qinish, musulmon xalqlarda, jumladan, o'zbeklarda ham «muqadsas» daraxt va toshlar,

har xil avliyoanbiyolarga sig'inish, turli-tuman duo va tumorlardan madad istash, ayrim buyumlar (qaychi, bolta, pichoq, isiriq, qalampir)ning ta'sir kuchiga ishonish, sanam.but kabilarni muqaddaslashtirish, fetishizm bilan bog'liq tasavvurlar ekanligi isbotlangan.

O'zbeklarda fetishizmning eng yorqin namunasi yomg'ir chaqirish marosimida qo'llaniladigan sehrli yada toshidir. Dastlab, bu to'g'rida XI asrda Mahmud Koshg'ariy ma'lumot beradi. Uning ta'rificha, turkiy xalqlarda «yomg'ir, shamol va boshqalarni talab qilish uchun maxsus toshlar (yada toshi) bilan fol ochish odatdir». Bu odat ular orasida keng tarqalgandir. Men buni yag'molar shahrida o'z ko'zim bilan ko'rdim. U yerda paydo bo'lgan bir yong'inni so'ndirish uchun shunday fol qilingan edi: «xudoning amri bilan yozda qor yog'di. Ko'z oldimda yong'inni so'ndirdi». Boshqa tarixiy-etnografik adabiyotlarning aksariyatida tarixiy xalqlarning ko'pchiligida ob-havoni o'zgartiruvchi sehrli qudratga ega bo'lgan toshlarning yada (jada), sata, da'da deb yuritilishi haqida xabar beriladi. «Yada» so'zi turli fonetik shakllardagi variantlardan iborat bo'lib, uning etimologik asoslari haqida adabiyotlarda har xil izohlar mavjud. Tadqiqotchilar «yada toshi» so'zining o'zbek tilida qadim zamonlardan buyon keng tarqalganligini qayd qiladilar. Folklorist B. Sarimsoqovning yozishicha, 1973-1982 yillarda o'tkazshtgan dala izlanipshari natijasida ko'plab axborotchilar yaqin paytlargacha o'zbeklar o'rtasida ham yomg'ir yog'diruvchi toshlar bo'lganligi, hozir esa ularning yo'qolib ketganligi to'g'risida ma'lumot berganlar. Xullas, yada toshi yordamida yomg'ir yog'ishiga erishish yoki ayrim kasalliklarni davolash kabi marosimlar juda katta arealda, ya'ni O'rta Osiyo, Sibir va Sharqiy Turkistonda yashovchi turkiy xalqlarda o'tmishda keng tarqalganligi, fetishizm dinining bu yerda muhim ahamiyatga ega bo'lganligini isbotlaydi.

Totemistik tasavvurlar va fetishizm bilan bog'liq keng tarqalgan va hozirgacha sakdanib kelgan ilk din shakllaridan yana biri magiya (sehrgarlik) hisoblanadi. Magiya yolg'on va ko'zga ko'rinmaydigan sehrli aloqa va ta'sirlarning tabiatda mavjudligini ishontirish, ayrim hollarda odam bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlarga o'zaro ta'sir o'tkazish, bir odamning ikkinchi bir

shaxsga ta'sir qila bilish qobiliyatiga ega ekanligidan iborat diniy e'tiqoddir. Bu e'tiqod asosida ayrim odamlar muayyan usul va vositalar orqali tabiatga va boshqa odamlarga o'zi istaganicha foyda yoki zarar yetkazish mumkin, degan tushuncha hosil qilganlar. Buyum va hodisalarning afsonaviy kuchga ega ekanligiga ishonish baxt va omad keltiruvchi yoki balodan saqlovchi har xil tumor va tilsimlarning paydo bo'lishiga, yaxshilik va yomonlikdan iborat turdya irim va harakatlarning kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Sehrgarlik bilan tabiiy hodisalarni o'ziga bo'ysundirish yoki ayrim shaxslarga ta'sir qilish maqsadida o'tkaziladigan xatti-harakatlar va shu bilan shug'ullanadigan shaxslar bizning davrimizga yetib kelgan. Hatto hozirgi ilmiy-texnika taraqqiyoti zamonida ham sehrgarlik bilan kishilarni davolash, taqdirga ta'sir qilish mumkin degan tasavvurlarga ega ayrim shaxslarni, turli ekstrasenslarni, folbinlik va duogo'ylik bilan shug'ullanuvchi firibgarlarni uchratishimiz mumkin. Bunday tasavvurlar, bir tomondan, insonning qo'rqish hissi bilan bog'liq sehr-jodu pardasiga burkangan, muayyan maqsad sari yo'naltirilgan xatti-harakat bo'lsa, ikkinchi tomondan, shu xatti-harakatni amalga oshiradigan muhim omillardan so'z magiyasi alohida o'rinni egallaydi.

Barcha sharq xalqtarida, shu jumladan, o'zbeklarda ham so'z va qattiq ko'z bilan bog'liq sehrgarlik qadimdan tarqalgan va hozirgacha kuchini saqlagan magiya turlaridan biri. Inson o'zining so'zlash iqtidoriga, so'zining sehr-jodu qudratiga doimo ishonib kelgan. Qadimdan so'z magiyasiga tayangan o'zbeklar o'zini sal noxush sezadimi yoki qoqilib, surilib ketadimi, omadi bo'lmay qoladimi yoki bir fojiaga yo'liqadimi - barchasini u g'ayritabiiy harakat, yomon ko'z yoki yovuz so'z qudratidan deb biladi. Hozirga qadar o'zbeklar orasida qo'llanilib kelinayotgan kinna, badik, burey va avrashsh bevosita so'zning sehr-jodu qudratiga asoslangan. Zamonimizda keng tarqalgan ekstrasenslar ham so'z magiyasidan zo'r mahorat bilan foydalanadilar.

Marosim folklori to'g'risida jiddiy tadqiqotlar olib borgan iste'dodli olim B. Sarimsoqov so'zning magik qudratiga asoslangan o'zbek marosimidagi janrlar o'zida xalqning qadimiy-e'tiqodiy tasavvurlarini, demonologik qarashlarini nisbatan to'la aks ettiradi, deb haqyai ravishda qayd qiladi. Uning fikricha, o'zbek

soʻz magiyasi janrlari u yoki bu joydagi oʻziga xos anʼana va xususiyatiga ega boʻlsada, yagona maqsadga yoʻnaltirilganligi, yagona mavzuga egaligi bilan alohida ajralib turadi. Olqish, qargish kabi janrlarda soʻz qudrati vositasida kishilarga yo yaxshilik, yo yomonlik tilash motivlari ustun turadi, yaʼni yetakchilik qiladi.

Soʻzning jodu qudratiga asoslangan oʻzbek xalq ijodidagi homiy ruhlar tomonidan tanlangan, iqtidorli ijro etiladigan janrlar: shamol aytimlari, kinna, badik kabilar yoki maxsus sehrgarlar ijro etuvchi avrash, burey-burey kabilar va keng ommaviy ijro etiluvchi olkdsh va qargʻish kabi janrlar ham asli animistik tasavvurlar bilan ham bogʻliq. Ayniqsa, birinchi guruhga mansub shomon chaqiriqlari, kinna, badik kabilar homiy ruhdar bilan «aloqada» amal qilishlari animizmga bevosita taalluqli. Bu sohada jiddiy tadqiqotlar oʻtkazgan etnograf olimlardan G. P. Snesev va V. N. Basilovlar mazkur eʼtiqodlar va irimlar toʻgʻrisida boy maʼlumotlar toʻplaganlar.

I.Bob. Samarqand viloyatidagi xalq bayramlari, oʻyin va marosimlari .

1.1. Samarqand viloyatida navroz bayramining nishonlanishi.

O'zbek xalqining madaniy merosida xalq ijod qilgan va katta ijtimoiy ahamiyatga ega turli bayramlar, ommaviy o'yinlar, mavsumiy, hunar-kasb marosimlari alohida o'rinni egallaydi. Bayramlar va marosimlar ijtimoiy va shaxsiy hayotning barcha tomonlarini qamrab oluvchi va kishilar o'zaro munosabatlarining turli jihatlarini va shakllarida namoyon bo'luvchi muayyan urf-odatlar va an'analar, axloqiy prinsiplar va huquqiy tartibotlarning tarixan shakllangan yig'indisidir. Ularning muhim belgilari va xususiyatlari barqarorligi va ommaviyligi, rivojlanishdagi takroriyligi, davomiyligi va uzluksizligidadir. Odat tusiga kirgan marosimlar kishilar xulq-atvorini boshqarar ekan, nafaqat jamoatchilik fikrlari nufuziga, balki qabul qilingan va qaror topgan odatiy qonun-qoidalar kuchiga ham suyanadi.

O'zbeklar va O'rta Osiyodagi boshqa xalqlarning tarix sinovidan o'tgan bayramlari va marosimlari kishilarning o'zaro munosabatlaridagi yaxshi fazilatlarni, chinakam xalqchil, umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiradi. Ijobiy urf-odat va marosimlarda o'zbeklarning milliy ruhiyati, ularning ma'naviy ongining soddaligi va fe'l-atvorining shakllari ham namoyon bo'ladi. Asrlar davomida shakllanib va avaylanib kelingan ijobiy rasm-udumlar va odatlardan Vatanga sadoqat, yoshi kattalarga hurmat, ota-onaga, yetimlarga va qariyalarga g'amxo'rlik, mehmondo'stlik, qon-qarindoshlik va o'zaro yordam, oila sharafini va ayollar sha'nini ehtiyotlash, hayotdan ko'z yumgan yaqin-uzoq kishilar xotirasini yod etish kabilar ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan bayram va marosimlarda ochiq namoyish qilinadi. Самарқандда жойлашган маҳаллий халқлар томонидан нишонланадиган тадбирларда ҳам шу нарсани кузатишимиз мумкин.

Asrlar osha saqlanib kelingan va ijtimoiy mohiyatga ega urf-odatlardan yana biri og'ir, mashaqqatli kunlarda o'z yaqinlarining ochlik yoki kambag'allikdan gadolik yoki daydilik qilishiga yo'l qo'ymaslikdir. Agar shunday odam chiqib qolguday bo'lsa, uning isnodi barcha qarindosh-urug'larga, mahalla-ko'yga, xalqiga kelgan. Asli gadoylik mamlakat uchun dog' tushiradigan holat ekanligini «Temur tuzuklari» qoralab, unga qarshi amaliy-ijtimoiy tadbirlar o'tkazish

zarurligi qayd qilingan.

O'zbek xalqi orasida eng keng tarqalgan, milliy tusga ega bo'lgan urf-odatlardan mavsumiy marosimlar diqqatga sazovordir. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, o'zbek mavsumiy marosimlarini quyidagi turkumlarga tasnif etish mumkin: 1) qishda o'tkaziladigan gap-gashtak, yasa-yusun kabilar; 2) bahorgi marosimlar - Navro'z, shoxmoylar (qo'sh chiqarish), lola yoki qizilgul sayli, loy tutish, «sust xotin» kabilar; 3) yozgi marosimlardan «qovun sayli», «choy momo» va hokazolar; 4) kuzgi marosimlar - hosil yig'imi bilan bog'liq «mixrgan», «oblobaraka», «shamol chaqirish», «uzum sayli» kabilar.¹

Butun Old va O'rta Osiyoda mashhur Navro'z bayrami va marosimlari juda uzoq davrlardan beri nishonlanib kelmoqda. Bu bayram asli dehqonchilik kalendari bilan bog'liq bo'lib, Yerning Shimoliy yarim sharida bahorgi kecha bilan kunduz teng kelgan kunlari 20-21 martdan boshlanadi. O'sha davrda butun tabiat uyg'ona boshlaydi, yer bag'ridagi barcha maxluqot va mavjudotlarning, qurt-qumursqalar, o'simlik va o't-o'lanlarning jonlanishi ro'y beradi. Bunday yangilanish jarayonining boshlanishi shamsiya (1yosh) yili hisobida 21 martga to'g'ri kelgan birinchi yangi kunni Navro'z deb ataganlar. O'rta asrning buyuk mutafakkiri Beruniy mazkur yil hisobining boshlanish oyi hisoblangan farvardin oyi to'g'risida gapirib bunday yozadi: «Navro'z yangi yilning birinchi kuni bo'lib, uning forsha nomi hali shu ma'noni taqozo etadi. Navro'z eronliklar zijlari bo'yicha o'tmish zamonlarda, ular yillarini kabisa qilgan vaqtlarida Quyoshning saraton burjiga kirish paytiga to'g'ri kelar edi. So'ngra u orqaga surilgach, bahorda keladigan bo'ldi. Endi u bahor yomg'irining birinchi tomchisini to'kishidan gullar ochilguncha va o'simlik unib chiqa boshlaguncha davom etgan vaqtda keladi. Shuning uchun Navro'z olamning boshlanishi va yarashishiga dalil qilingan».¹

O'sha davrda yashagan ulug' siymolar Mahmud Koshg'ariy va Umar Hayyomlar ham Navro'z to'g'risida ancha qiziqarli ma'lumotlar yozib

¹ Жабборов, И. Узбеклар. Т-2008. 158-бет.

¹ Ko'rsatilgan asar. 159-bet.

qoldirganlar. Ularning asarlarida Navro'zning tabiat qonuniyatiga muvofiq tomoni qayd qilinibgina qolmay, u bilan bog'liq turli irim, urf-odat va marosimlar to'g'risida ham qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Masalan, Beruniyning ta'rificha, afsungarlar Navro'z kuni tong otganda birov gap gapirishdan oldin uch qoshiq asal yalab, uch bo'lak (xushbo'y) mum tutatsa, bu ko'p kasalliklarga shifo bo'larmish. Yoki shu kunning tongida gap gapirishdan oldin shakar totib, o'ziga zaytun (yog'i) surtgan kishidan yil bo'yi turli balolar daf etiladi, degan irimlar bo'lgan. Bayram urf-odatlari haqida so'zlab, alloma shunday deb yozadi: «Eronliklarda Navro'z kuni bir-birlariga shakar hadya qilish rasm bo'lgan edi.

Bag'dod mubodi Ozorbodning hikoya qilishicha, buning sababi, Navro'z kuni Jamshid mamlakatida shakarqamish paydo bo'lgan...»

Mahmud Koshg'ariy ham Navro'z to'g'risida o'n ikki muchal yil hisobi bilan bog'lab turli ma'lumotlar beradi. Navro'z bayramida bahorga bag'ishlangan xalq qo'shiqlaridan¹

namunalarni keltiradi. Rivoyatlardan birida Navro'zga borib taqaladigan muchal hisobidan hayvonlar nomlarini tilga olib, shunday deb yozadi: «Turklar bu yillarning har qaysisida biror hikmat bor, deb taxminlaydilar. Masalan, ularcha sigir yili bo'lsa, urush ko'p bo'ladi, chunki sigir bir-biri bilan suzishadigan hayvon. Tovuq yili kirsa, oziq-ovqat ftayadi, lekin odamlarda tashvish ortadi. Chunki tovuqning ovqati don bo'lib, uni topib yeyish uchun narsalarni titib yuradi. Timsoh yili kirsa, yog'ingarchilik va hosil ko'p bo'ladi, chunki u suvda yashaydi. To'ng'iz yili kirsa, sovuq, qor va fitna kup bo'ladi... Ko'chmanchi va musulmon bo'lmagan turklar oylarni to'rt fasl bilan ataydilar. Har uch oyni bir ism bilan yuritadilar. Masalan, Navro'z (yangi kun)dan keyingi avval bahorga bog'liq oy derlar. Chunki oy bu vaqtda katga bo'lib qoladi...» Navro'zdan boshlab yilning ilk fasli sanalgan va barcha fasllar tabiat qonuni hamda osmon sayyoralari (Oy, Quyosh) holatiga qarab belgilangan

Qadimgi O'rta Osiyoda va Eronda Navro'z nafaqat xalq, balki davlat bayrami sifatida ham nishonlangan. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, odamlarni tabaqalarga bo'lib, Navro'z bayramini bir oyga cho'zib, har besh kunni bir

tabaqaga taalluqli deb hisoblaganlar. Masalan, Eronda birinchi besh kunlik podsholarniki, ikkinchisi zodagon zotlarniki, uchinchi besh kunlik podsho xizmatkorlariniki, cho'ri-malaylarniki hisoblangan. Podsho Navro'zining besh kunligida shoh bayramni boshlab bergan va fuqarolarga muloqotda bo'lishni hamda muruvvat qilishni e'lon qilgan. Ikkinchi kuni u dehqon va aslzodalarni qabul qilgan, uchinchi kuni otliqlar va oliy ruhoniy (mobed) larni, to'rtinchi kuni o'z farzandlari va fuqarolarini qabul qilgan. Oltinchi kun ulug' bayram hisoblanib, unga «Katga Navro'z» deb nom berilgan. Xorazmliklar va sug'diylarda sosoniylar hukmronligi davrida Navro'z bilan birga bir necha xalq bayramlari davlat bayrami deb e'lon qilingan.

Beruniy asarlarida, Umar Hayyomning «Navro'znoma»sida va boshqa manbalarda, ilk bahor bayramini nishonlaganda yerga suv quyish yoki sepish, sovg'a-salomlar hadya qilish, arg'imchoqlarda uchish, shirinlik (qandolat) tarqatish, yetti yil hosilini belgilash, tahorat qilish va yomg'ir suviga cho'milish kabi urf-odat, irimlar to'g'risida xabar beriladi. Navro'z kuni podshoh dasturxoniga turlicha doddan- bug'doy, arpa, tariq, makka, no'xat, yasmiq, guruch, kunjut yoki loviya unidan pishirilgan non qo'yilgan. Dasturxon o'rtasiga turli daraxt (tol, zaytun, behi, anor va h.k.)lardan yetti novda, yetgi oq kosa va oq dirham, yangi dinor ham qo'yilgan. Podshoga oq qand va kokos yong'og'idan maxsus taom berganlar, u taomni yangi sog'ilib, xurmo qo'shilgan sut bilan iste'mol qilgan. Hozirgacha, Eronda Navro'z dasturxoniga marosimga binoan yetti xil (xaftsin) «s» harfi bilan boshlanadigan narsalar tortilgan. Shu bilan birga, qatiq, sut, qurt va bo'yalgan tuxum, meva, yong'oq, bodom va hokazolar qo'yiladi. Shunisi muhimki, bayramning bosh marosim taomi sumalakni ham ilgari pishirganlar. Qadimiy davrlarda Navro'z arafasidagi yetti kun sovuq bo'lib «ojiz kampir» kunlari deb nomlangan. O'rta Osiyo xalqlarida, shu jumladan, o'zbeklarda, yangi yil marosim taomi go'ja va sumalak pishiriladi. Shu kunlarda katta bozorlarda savdo-sotiq, yalpiz, ko'kpiyoz, yosh beda va boshqa ko'katlar solingan turli taomlar va shirinliklar tayyorlanadi. Tantana va o'yin-kulgilar bilan pishiriladigan shohona taom sumalak rizq-ro'z, mo'l-ko'lchilik ramzi bo'lib, uni

tayyorlash katta san'at talab qiladi. Odatda, sumalakka ketadigan xarajat jamoadan yig'ib olingan. Sumalak pishirishdan oldin jamoa (mahalla) a'zolaridan bug'doy ko'ki va o't yig'ishtirilib, umumiy qozonga solingan va pishgandan keyin teng tarqatilgan.

Navro'z bayrami katta ommaviy sayillar, xalq o'yinlari, musobaqalar, sozanda va raqqosalar, masxaraboz va dorbozlar ishtirokida o'tadi. U Umar Hayyom bergan ma'lumotlarga asoslanib, shuni ta'kidlash mumkinki, 26 asrdan buyon nishonlanib kelayotgan Navro'z bayrami boshlanishi bilan o'zaro urushlar to'xtatilgan, yarashish shartnomalari bitilgan, hatto dafn marosimlari boshqa kunga ko'chirilgan. Bu bayram shunchalik ehgiromli, quvonchli va shodlik kunlari sifatida katta tantanalar bilan nishonlanibgina qolmay, uzoq-yaqin qavmu qarindosh va do'stlarni yo'qtash, kasallar holidan xabar olish, marhumlar qabrini ziyorat qilish, do'stlararo sadoqatlikni bildirib, inson qadrini e'zozlash kabi odatlarga amal qilingan.

Navro'z bayramining boshqa bahor fasli bayramlariga ancha yaqinligi ham diqqatga sazovordir. Etnograflarning bergan xabarlariga qaraganda, Parkent, Samarqand va Xorazmda o'tkaziladigan lola sayli, sayli gulisurx yoki qizil gul sayillari asli Navro'z marosimlariga ancha o'xshab ketadi. Bunday bayramlar mart (hamal) oyida nishonlanib, bir oygacha davom qilgan. Sayil vaqtida katta bozor ishlab bir qishloqdan ikkinchisiga o'tgan. Bozor maydonida masxarabozlar, dorbozlar, sozandalar, polvonlar tomosha ko'rsatganlar, qo'chqor, tuya, xo'roz va bedana urishtirishlari, tuxum urishtirish o'tkazilgan. Ba'zan, mazkur musobaqalar mushtlashishga aylanib, qadimiy fraternal tuzumga xos ibtidoiy marosimlarning elementi sifatida saqlanib qolgan. Shunisi ham diqqatga sazovorki, mazkur bayramda ishtirokchilar (erkak va ayollar) ancha erkin bo'lganlar, kechki bazmlarda maxsus tayyorlangan

sharob - musallas ichilgan, o'yin-kulgilar avjiga chiqqan. Ayrim tadqiqotchilarning ²³fikricha, gul sayillari bir oy davomida o'tkazilib, bahor

¹ Дала ёзувлари. Булургур . 2010 й

¹ Дала ёзувлари. Булургур . 2010 й.

bayramining bosh marosimi Navro'z bilan ulanib ketgan.¹

Hayotimizda Navro'z bilan bog'liq saqlanib kelayotgan an'analardan biri yangi tugilgan bolalarga Navro'z ismini qo'yish odatidir. Lutfiyning ajoyib asarlaridan «Gul va Navro'z» dostonida Farruh shohning o'g'li shu kuni tug'ilgani uchun uning oti Navro'z deb qo'yrshgan. Hozir ham Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro viloyatlarida Navro'z kuni tug'ilgan bo'lsa, o'g'il bolalarga Navro'z deb, Farg'ona vodiysida esa, ko'pincha, qiz bolalarga Navro'za deb ism qo'yiladi.

Ilgari mahalliy iqlim sharoiti va unga mos turmush tarzi hamda mehnat tajribasi, yil fasllarining almashinishiga qarab, dehqon va cho'pon yillari farq qilingan. Dehqon yili 21 martdan keyin - yer ilib, o'simliklar jonlangandan keyin boshlanadi, 16 martdan o't-o'lanlarning o'sib chiqqan boshlashi bilan cho'pon yili hisoblanadi. Mazkur davrdan dehqonlar faol harakatga kelib, yerga ishlov berishga kirishadi, cho'pon (chorvador)lar yozgi yaylovga ko'chish ishlarini boshlab yuborad.

1.2. Samarqand viloyatidagi dehqonchilik bilan bog'liq urf-odatlar va

marosimlar.

Navro'z ham asli dehqonchilik bilan uzviy bog'liq bo'lgan va unga tayyorgarlik qilish ishlari bilan birgalikda olib borilgan. Hozirgacha Navro'zga tayyorgarlik dala ishlarini o'tkazish tadbirlari bilan birga o'tkaziladi; bog'rog'larga gul va ko'chatlar ekish, dalalarni ekinga tayyorlash, agrotexnika va moddiy resurslarni taxt qilish, mahalliy o'g'it to'plash, ariq va zovurlarni tozalash kabi ishlar bajariladi. Butun O'zbekistonda erta bahorda boshlanadigan dehqonchilik ishlaridan loyqa o'tirib qolgan ariq-zovurlarni tozalash, ularni yangi mavsumga tayyorlashga alohida e'tibor qaratiladi. Bunday ishlar yakka xo'jaliklarning qudrati yetmaganligidan, butun qishloq yoki tuman ahli kuchi bilan hashar yordamida amalga oshirilgan. Mana shu paytda Surxondaryo, Qashqadaryo va Zarafshon vodiysida loy tutish, Xorazmda qazuv marosimlari o'tkazilgan.

«Loy tutish» marosimini o'tkazish quyidagicha bo'lgan: biror kishi ariq qazuvchilar oldidan o'tib qolsa, uning qo'liga ketmon yoki belkurakda loy tutqazganlar. Kelgan kishi uni loyi bilan joyiga yetkazib, qutulib ketadi, yoki hasharchilarga ziyofat berishga majbur bo'ladi, yo belgilangan joyining arig'ini qazib beradi. U qo'shiqchi bo'lsa qo'shiq aytishi, baxshi bo'lsa doston kuylashi, polvon bo'lsa kurash tushishi, temirchi bo'lsa ariq qazish uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar yasab yoki ularni tuzatib berishi lozim. Agar aytilganlardan birortasini bajara olmasa, u belgilab berilgan yerdagi ariqni qazib, so'ng o'z yo'liga ketishi mumkin. Hashar (ko'mak) odatiga asoslangan turli ommaviy ishlar ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, xalq ijod qilgan har xil marosimlar va sayillar bilan nishonlangan.¹

Dehqonchilik kasbiga oid eng muhim marosimlardan biri dalaga qo'sh chiqarish bilan bog'liq «shoxmoylar» alohida quvonch va tantana bilan nishonlanadi. Odatda, dalaga qo'sh chiqarish qunini qishloqdagi tajribali dehqon (oqsoqol) belgilab bergan. Shoxmoylar dushanba, chorshanba va juma kunlaridan biriga to'g'ri kelishi lozim bo'lgan, chunki bu kunlar dehqonlar tasavvurida baxt, omad keltiriladigan kunlar hisobangan. Asosan, qo'sh chiqarish Navro'z kunlari boshlangan, ammo yerlar pishib yetishsa, ob-havoga qarab Navro'zga qadar ham

o'tkazilgan. Shoxmoylar tantanalariga to'q-farovon joylarda qishloqning barcha ahti tayyorgarlik ko'rgan; har bir xonadon turli taomlar pishirgan, nonu qatlama, patirlar yopilgan, bo'g'irsoq pishirilgan. Marosim o'tkaziladigan joy supurilib-sidirilib, sholcha, kigizu gilamlar ⁴to'shalib, dasturxonlar yoyilgan, unga tayyorlangan taomlar tortilgan. Qishloq ahyai to'plangach, oqsoqol yaxshi tilaklar bilan duo-fotiha qilib, pishirilgan narsalar aholi orasida tarqatilgan. Shundan so'ng qo'sh chiqarish uchun maxsus boqilib turgan ho'kizlardan biri olib chiqilgan va o'tgan yilgi hosilning oxirgi tutamidan tayyorlangan kulcha qishloqning barcha mo'tabar qariyalari va boshqa ishtirokchilariga bir parchadan sindirib beriladi. Kulchaning bir bo'lagi tanlab olingan ho'kizga ham beriladi. Nihoyat, ko'z tegmasin deb ho'kizlarning shoxiga zig'ir yog'i surtiladi, ins-jinslardan va yovuz ruhyaardan pok bo'lsin deb, isiriq tutatiladi.¹

Dastlabki qo'shni qishloqning eng hurmatli, serfarzand va ko'p nevarachevarali mo'ysafidlaridan biri soladi. Oqsoqol qo'sh bilan kuchi yetguncha yo bir marta, yo uch, yo besh marta, umuman, toq marta yer haydaydi, keyin o'tgan yilgi hosilning oxirgi tutamidan olingan bug'doydan irimiga haydalgan yerga byr necha hovuch sepadi. Mazkur marosimdan so'ng barcha dehqonlar hukizlarini yetaklab uyga qaytganlar va oilaviy doirada bayram xursandchiligini uyda davom qilganlar. Boy xonadonlar qush chiqarish arafasida ziyofatlar berishib unga mulla-eshonlarni chaqirib dehqon risolasini va boshqa diniy kitoblarni o'qishgan.

Dehqonchilik va chorvachilik bilan bog'liq yana bir muhim marosimlardan qurg'oqchilik vaqlarida yomg'ir chaqirish urf-odatlar ham qadimdan saqlanib kelgan. Lalmikor dehqonchilik va chorva bilan shug'ullanuvchi aholi uchun bahor hamda yozning ilk oylarida yomg'irga katta ehtiyoj seziladi. O'zbeklar va boshqa O'rta Osiyo xalqtari tabiiy, ya'ni yomg'ir suvlari bilan sug'oriladigan ekinlarni lalmi (qayroqi) deb nomlagan. Bunday dehqonchilik yog'ingarchilik bo'lmagan oylarda xavf ostida qolgan. Shuning oldini olish maqsadida o'tkaziladigan maxsus marosimlardan «sust xotin», «suv xotin», «chala xotin» kabi yomg'ir chaqirish

¹ Жабборов, И. Узбеклар . Т-2008. 148

udumlari keng tarqalgan.

Marosim maxsus belgilangan kun va vaqtda o'tkazilgan. Ammo bu kun xalq tasavvurida qabul qilingan irimga qarab haftaning baxtli kuniga to'g'ri kelishi zarur bo'lgan. Marosimning birinchi bosqichi tashkiliy ishlardan boshlangan, unga epchil va uddaburon shaxslardan tashkilotchi mutasaddi tayinlangan. U marosim uchun kerak bo'lgan narsalarni tayyorlagan. Bunday narsalar, masalan, laqay o'zbeklarida bitta bo'sh qovoq, ikkita qamish naycha, ikkita toshbaqa, bitta eshak va xayr-sadaqa solish uchun bitta xurjundan iborat bo'lgan. Eng muhim narsa shuki, yog'ochdan qo'riqchi shaklidagi qo'g'irchoq yasali, u poliz ekinlari o'rtasiga qo'yilgan va qari ayolning ko'ylagi kiygizilgan. Shundan so'ng marosimning asosiy qismi - ikkinchi bosqichi, ya'ni uni o'tkazish boshlangan. Shuni ham qayd qilish lozimki, «sust xotin» marosimi o'zining ishtirokchilari tarkibi, jinsi va yoshiga, ayrim elementlariga qarab, har bir viloyatda har xil bo'lgan.

Marosimning ancha keng tarqalgan xili Булуңғур, Қўшрабод va Нуробод туманларида o'tkazilgan, Chunki bu yerlarda lalmikor ekinlar ko'p ekiladi. Marosim belgilangan kun va vaqtda o'n-o'n besh ayol maxsus yasalgan qo'g'irchokda qari ayolning ko'ylagini kiydirib, bir ayol uni ko'tarib oladi, qolganlari uning ortidan ergashib, qishloq yoki mahalladagi xonadonlarga «sust xotin» qo'shig'ini naqarot bilan aytib birma-bir kirib chiqadi. Uy egasi ularni xursandchilik bilan qarshilab, qo'g'irchoq ustidan suv sepadi va imkoniyatiga qarab xayr-ehsonlar qiladi. Aytiladigan qo'shiqda dehqon sepgan bug'doyning mo'l hosil berishi, xonadonlarga xursandchilik keltirishi, el-yurtga to'kinchilik va qut-baraka berishi ta'kidlanadi, eng muhimi, yomg'ir hadya etish «sust xotin»dan iltijo qilinadi.

Hosillar mo'l bo'lsin, sust xotin,

Dehsonning uyi to'lsin, sust xotin.

Yomg'irlarni yog'dirgin, sust xotin,

Yomonning uyi kuysin, sust xotin...

Osmondan tomchi tashlab, sust xotin,

Elu yurtni to'ydirgin, sust xotin.

Ayrim axborotchilarning xabar berishicha, taxminan 40- 50 yillar muqaldam qishloqyaarda «sust xotin» marosimi har yili bahorda ikki-uch marotaba o'tkazilgan. Sho'rchi tuman Qalliq qishlog'i va uning atrofidagi joylarda, Janubiy Tojikistondagi o'zbek laqaylarida mazkur marosimni, asosan, erkaklar o'tkazgan. Unda qo'g'irchoq o'rniga ishtirokchilardan biriga ayol kishining ko'yagi kiydirilib, suv ana shu kishining ustidan sepilgan.

Маҳаллий аҳолидан 15-20 kishi to'planib, yarim yalang'och ikki kishini eshakka bir-biriga qaratib mindirganlar. Ularning o'rtasiga ikki toshbaqani oyog'idan bog'lab eshakning ikki tomoniga osiltirib qo'yganlar. Mingashgan kishining biriga suv solingan qovoq tutqazilgan, ikkinchisiga bir-biriga bog'langan ikki qamish naycha berilib, naychalar suv solingan qovoq idish ichida aylantiriladi va guvillab ovoz chiqaradi. Bu ovoz go'yoki qiynalgan toshbaqalarning ovoz chiqarishiga taqlid hisoblanadi. Qolgan ishtirokchilar eshakka minganlarning orqasidan ergashib, «sust xotin» qo'shig'ini aytib qishloqdagi xonadonlarni birma-bir aylanib chiqadilar. Uy egasi eshakka mingan kishilarning ustidan suv sepib, marosim ishtirokchilariga xayr-sadaqa beradi. Beriladigan narsalar, asosan, non, don, qand-qurs, ba'zan uloq, qo'y, hattoki sigir, ot yoki naqd puldan iborat bo'lgan.

Yomg'ir chaqirish marosimining Buxoro viloyatining Qorako'l va Olot tumanlaridagi o'ziga xos mahalliy xillaridan biri ijro etilgan «chala xotin» qo'shig'i bilan ma'lum. Bunda ham yog'ochdan yasalgan ayol qo'g'irchoq qishloq bo'ylab uyma-uy aylantirilib xayr-sadaqa yig'iladi. Uning orqasidan besh-olti bola xurjun ko'tarib yuradi. Bolalar xonadonlarga kirib qo'g'irchoqni aylantirib, yomg'ir yog'ishini Tangridan tilab, «chala xotin» qo'shig'ini kuylaydilar:

Aylanadi chala xotin,

Urgiladi nala xotin.

Onamning to'ng'ichiman,

Qozonning qirg'ichiman,

Yomg'irning yog'gichiman,

Xudo bersa, obi rahmat yog'aversin.

Aylanadi chala xotin,

O'rgiladi chala xotin.

Marosim oxirida jamg'arilgan narsalar hisobiga uning ishtirokchilari butun qishloq yoki mahalla aholisiga is chiqaradi. Odatda, is chiqarish qishloqning guzarida yoki so'lim joylaridan birida o'tkazilgan.

Xudolarning ramziy shakllarini haykal yoki qug'irchoq qiyofasida yasab, unga sig'inish hamda turli marosimlar o'tkazish juda ko'p xalqlarda, shu jumladan, O'rta Osiyo xalqyaarida eng qadimiy davrlardan mavjud ekanligini arxeologik va etnografik ma'lumotlar tasdiqyaaydi. «Sust xotin» marosimi yakunidagi qo'g'irchoqni yo kuydirib yuborish yoki eski quduqqa tashlash udumi uzoq o'tmishdagi ajdodlarimizning qurbonlik qilish marosimining qoldiqlaridan ekanligini aniq ko'rsatib turibdi. Etnografiyadan ma'lumki, qurbonlik qilish dastlab tirik odamlar, asosan qariyalar, hindularda yosh qizlar, keyinchalik (masalan, Ibrohim Payg'ambar afsonasi) ayrim hayvon yoki jonsiz buyumlar hisobiga o'tkazilgan. Shu asosda «sust xotin» marosimidagi kekxa ayol ko'ylagi kiydirilgan qo'g'irchoqning yomg'ir yog'ish uchun kuydirib yuborilishi yoki quduqqa tashlanishini odamni qurbon qilishning ramziy ifodasi deb hisoblash mumkin.¹

Uzoq o'tmishdan saqyaanyb kelgan shamol chaqirish va uni to'xtatish marosimi matriarxat davriga oiddir. Sibir xalqlari so'nggi vaqtlargacha shamolni ilohiylashtirib, allaqanday tosh odamlar vujudga keltiradi deb uni chaqirish yoki to'xtatish uchun ulkan ⁵toshlarga, qoyalarga sig'inib qurbonliklar qilganlar. Ayrim xalqyaar shamolni qandaydir mo'jizaviy qudratga ega bo'lgan ayol paydo qiladi, deb o'ylaydilar. Farg'ona vodiysi o'zbeklari ham shamol allaqanday g'ordan kelib chiqadi, uning homiysi qari ayol sifatida, deb tasavvur qiladilar. Samarqand, Buxoro, qisman Qashqadaryo va Surxondaryoda yashovchi o'zbeklar ham shamol homiysini kekxa ayol obrazida tasvirlaydilar.

Janubiy Qozog'istondagi o'zbeklarda «choy momo» marosimi hozirgacha

¹ Жабборов, И. Ўзбеклар. Т-2008. 152-бет.

saqlanib kelgan. Bu marosim to'g'risida taniqli etnograf A. Divayev asrimiz boshlarida qisqa ma'lumot bergan. Uning ta'rificha, yoz oylarida, ayniqsa, boshqoli ekinlar yetilgan paytda qattiq shamol turib, arpa, bug'doy, tariq kabi ekinlarni payhon qilib tashlaydi. Buning oldini olish uchun bir necha qari ayollar yuzlariga qorakuya surkashib, keli (o'g'ir) sopini ot qilib minishib, qo'llariga uzun gavron olishib, unga turli rangdagi latta-puttalarni boylashib, otga o'xshab kishnab, sakrashib «choy momo» qo'shig'ini aytganlar. Har bir xonadon marosim ishtirokchilariga xayr-sadaqa qilgan. Ayrim mualliflar fikricha, «choy momo» qadimiy turkiy tillardagi shamol so'zi «chal» shaklida bo'lganligini inobatga olib, «chal momo» so'zining fonetik o'zgargan shakli, «shamol momo» ma'nosini anglatadi. A. Divayev ham «choy momo» degani noto'g'ri ibora, chunki u hych qanday ma'noni anglatmaydi, «chal momo» yoshi ulug', maslahatgo'y kampir ma'nosida deb ta'riflaydi. Ammo, u marosim to'g'risida ma'lumot bermaydi.

B. Sarimsoqovning to'plagan ma'lumotlariga qaraganda, «choy momo» marosimi Sayram o'zbeklari orasida quyidagicha o'tkaziladi. Ikki kampir eski-tuski kiyim kiyib, yuzlariga qorakuya surkashib, qo'llarida hassa bilan oldinda yurib «choy momo» qo'shig'ini aytib borishadi. Bo'yi yetgan besh qiz boshlariga qizil sholcha yopib, kampir ketidan ergashib ashulaga jo'r bo'ladilar. Ularning ketidan yetti-sakkiz yashar o'gil bola katta xurjun ortilgan eshakka minib o'qggoq, yumshoq supurgi va keli sopini birga bog'lab sudraydi. Marosim ishtirokchilari shu tariqa qishloq bo'ylab «choy momo» qo'shig'ini aytib, ko'chama-ko'cha aylanadilar. Har bir xonadon imkoniyatiga qarab bug'doy, un, tuxum, non yoki pul berishi shart. Yig'ilgan narsalar xurjunga solinadi. Marosim ishtirokchilari qishloqni bir kunda, ba'zan ikki-uch kunda aylanib, yig'ilgan bug'doy undan chalpak pishirib, shamol ota (ona)ga is chiqaradilar. Pishirilgan chalpakdan o'n ikkitasini shamol homiysiga atab yerga ko'mishadi yoki muqaddas hisoblangan joydagi teshikka tashlashadi. Boshlariga sholcha yopishgan qizlar butun marosim davomida yuzlarini ochishmay yurishlari shart, aksincha shamol yana kuchayib ketar emish. Ba'zan yig'ilgan narsalarni sotishgan va qo'y olishib, shamol chiqadigan joyga borib qurbonlik qilgan. Qurbonlik go'shtidan sho'rva pishirilib

aholiga tarqatilgan, ortib qolganini shamol chiqadi deb taxmin qilingan teshikka to'kkanlar.

Mazkur marosimning ayollar tomonidan uyushtirilishi va bajarilishi, shamol homiysining ayol kishi deb tasavvur qilinishi shubhasiz jamiyatda ayollar mavqeining yuqori darajaga ko'tarilganligini, «choy momo» marosimi ildizining matriarxat davriga oid ekanligini isbotlaydi. Unda beshta voyaga yetgan qizni boshiga qizil sholcha yopintirib olib yurish ham genetik jihatdan eng qadimiy urf-odatlardan. Bu qizlarni tabiatning dahshatli kuchlari (sunkali qattiq shamol, suv toshqini va qurg'oqchilik kabilar) oldida ijtimoiy qo'rquv ta'sirida ayrim mamlakatlarda amal qilingan odamni qurbonlikka mahkum etish odatining ramzi, deb tushunish mumkin. Qizlar sonining beshta bo'lishi ham qadimiy tasavvurlar bilan bog'liq. Ko'p xalqlarda dastlabki ibtidoiy hisoblar besh barmoqsan boshlanishi, dastlab haftaning besh kundan iborat bo'lishi, odam tanasining besh muchaldan (ko'z, quloq, og'iz, oyoq va qo'l) iboratligi, besh qismga bo'linishi kabi tasavvur bu raqamning muqaddasligini tasdiqyaaydi. Marosimda ishlatiladigan buyumlardan o'qlov bilan keli sopi rizq-nasiba ramzi sifatida olib yurilsa, supurgining ziyon-zahmatni supuruvchi degan maqsadda olib yurilishi asli ibtidoiy magik (sehrgarlik) bilan bevosita bog'liq odatlardan. Hozirgacha o'zbeklarda supurgi ustidan hatlab o'tish yoki biror yeriga tegish kishiga zarar yetkazadi degan irim saqlangan. Qari ayollarning yuzlariga qorakuya surtishi ham asli magik tasavvurlar bilan bog'liq irimlardan.¹⁶

«Choy momo» marosimida aytiladigan qo'shiq mazmuni ham diqqatga sazovor. Etnograf A. Divayev asrimiz boshlarida yozib olgan matnda shamol homiysiga murojaat qilishni, yetilgan don boshoqggari payhon bo'layotganligi, yem-xashak va poxol g'aramlari sochilib, qishloqni bezor qilayotganligi aytilishi bilan birga «choy momo»ga qarab, «bo'ronni tindiraman, yemishingni sindiraman», deb do'q-po'pisa ham qilinadi. Qo'shiq marosim ishtirokchilariga saxiylik qilib, mo'l sadaqalar berib, xudoyi qilib shamolni haydaymiz, degan murojaat bilan tugaydi.

¹ Саримсоков. Б. Ўзбек маросим фалклори . Т. «Фан» 1986. 52-бет.

Shamol chaqirish yoki uni to'xtatish marosimi nafaqat yozda, balki kuz faslida ham o'tkazilgan. Chunki yoz faslida hamma narsa pishib yetishganda surunkali qattiq shamol zararli bo'lsa, kuzda pishiqchilik paytida donni yanchib, somonni tozalash uchun shamol esishi talab etilgan. Ilgari o'zbeklarda va boshqa turkiy xalqlarda shamolni to'xtatish yoki chaqirish maqsadida o'tkaziladigan mazkur marosim keng tarqalgan, ammo hozir butunlay yo'qolib ketgan.⁷

Yoz fasli bilan bog'liq ijtimoiy mazmundagi sayil va marosimlar pishiqchilik, ekin-tikin va ilk hosillar, qishga tayyorgarlik kabi hayotiy muammolarni ifodalaydi. Yoz faslida kishilar qishning g'omini yeydi, dastlabki yig'im-terimni boshlaydi, ayniqsa, o'rim paytlari dehqon uchun eng quvonchli va mas'uliyatli davr hisoblanadi. Qishga tayyorgarlik, oziq-ovqat, sabzavot, kiyim-kechak, turar joy va uy-ro'zg'or g'amlari bilan bog'liq tashvishlar rang-barang va turli marosimlarni yuzaga keltirgan. Shulardan biri «oxirgi tutam burdoyni o'rib olish» marosimi hisoblanadi. Uzbeklarda bu marosimning «Oblo baraka» (G'allaorol atroflarida) deb nomlanishi islom ta'sirida paydo bo'lgan. Xorazmda so'nggi tutam bug'doy yig'ilib, xirmon tugatilganda ustiga kesak qo'yiladi, shunga qarab, uni «baraka kesagi» deb ataganlar.¹

Mazkur marosim, asosan, bug'doy o'rimida qatnashgan hasharchilar ishtirokida o'tkazilgan. Ma'lumki, hashar o'zbek xalqining ijtimoiy xarakterga ega eng ajoyib, ko'hna an'analardan hisoblanadi. Hashar dastlab qo'ni-qo'shni, qavmi qarindosh, hamqishloqlarning yordami bilan o'tkaziladigan jamoaviy ishlar, jumladan, uy qurish, ariq qazish, ko'prik qurish, hovuz yoki quduq tozalash, ekinni o'rib olish kabilardir. Ekin o'rimi dehqon hayotining nihoyatda muhim va mas'uliyatli vaqgi hisoblanib, yetilgan hosilga ko'z tegmasin, barakali bo'lsin, deb turli rasm-udumlar, irim-sirimlar va marosimlar o'tkazilgan. O'zbeklarda ilgari o'rim boshlashdan oldin, hatto, qurbonlik qilish odati bo'lgan. Ayniqsa, jamoaga tegishli yoki vaqf yerlaridagi hosilni yig'ib olish tantanali o'tkazilgan. Masalan, Buxoro amirligida ekiladigan yerlarning 24,6 foizi vaqf yerlari bo'lib, bu

⁷ Жабборов, И. Узбеклар. Т-2008. 153-бет.

¹ Жабборов, И. Узбеклар. Т-2008. 154-бет.

yarlardagi ekinlar butunlay hashar yo'li bilan yerga ishlov berilib, ekilgan va yig'ib-terib olingan. Mahallachilikda ham ekin o'rimi, odatda, hasharchilar ishtirokida o'tkazilgan.

«Oblo baraka» marosimida hasharchilar bug'doy o'rimining oxirida bir parcha o'rilmagan yer qolgach, har tomondan o'rib o'sha yerga intiladilar. Har bir hasharchi oxirgi bug'doy tutamini o'rib olishga harakat qilgan va shu tutamni «ona bug'doy» deb ataganlar. Kimki birinchi bo'lib oxirgi tutamga yetib kelsa, «yetdim, yetdim, yetdim, Oblo baraka bersin», deb uni o'rib oladi. Ona bug'doy shu holigacha bog'lanib, uyga olib boriladi va bahorgi ekish paytigacha saqlanadi. Ekin ekish boshlanganda ona bug'doy tozalanib, bir qismi urug'lik donga, bir qismi yanchilib xonadondagi tayyor unga aralashtirib, undan non-patir yopiladi. Yepilgan non-patir dalaga olib chiqilib, don sepishga chiqqan dehqonlarga ulashib berilgan.¹

Tarixiy-etnografik ma'lumotlarning aksariyatida turkiy xalqlarda, jumladan, o'zbeklarda ob-havoni o'zgartirish, bahor yoki kuzda yomg'ir yog'dirish, qishda havoni isitish uchun qo'llaniladigan sehrli toshlar mavjud bo'lib, ularning yada (jada), sata («Avesto»da «d'ata») deb nomlanishi haqida xabar beriladi. Bunday toshlar go'yoki ot, sigir, bug'u kabi hayvonlar hamda karQUR nomli qushning oshqozonidan topilgan. Yada (jada) so'zi entimologiyasi qadimgi turkiy tildagi jodugarlik so'zidan olingan magik qudratga ega bo'lgan toshni ifodalovchi mustaqil atama hisoblanadi. Bu so'z bilan bog'liq bo'lgan maxsus marosim o'tmishda O'rta Osiyo va Sharqiy Turkistonda yashovchi barcha turkiy xalqlarda mavjud ekanligi aniqlangan. Yada toshi yordamida nafaqat ob-havoni o'zgartirish, balki kishilar va uy hayvonlarining ayrim kasalliklarini davolash kabi marosimlar juda keng hududga, chunonchi, butun O'rta Osiyo, Sibir va Sharqiy Turkistonda yashovchi turkiy xalqqtar orasida tarqalgan bo'lib, hozir ular butunlay unutilgan.

1.3. Samarqand viloyatidagi an'anaviy tadbirlar va milliy sport musobaqalari.

Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim an'anaviy tartiblardan biri-ustozlarning shogirdlarga fotiha berish marosimidir. Bu marosim barcha kasblarda deyarli bir xil o'tgan. Shogirdlikka, odatda, bolani yoshlikdan (8-10, ayrim paytlarda 6-7 yoshda) ota-onasi muayyan ustaga topshirib: «Go'shti sizniki, suyagi bizniki», degan ibora bilan, ya'ni butun taqdiri ustoz qo'lida, nima qilsa ixtiyori o'zida, deb qoldiradi. Yigit kasbini o'rganib, o'zi mustaqil ravishda mahsulot tayyorlash darajasiga yetganda ota-onasi (yetim bo'lsa, ustaning o'zi) fotiha ziyofatini o'tkazishi shart bo'lgan. Masalan, etikdo'z yoki mahsido'z shogird ustalikni to'la egallab olganligini isbotlash uchun bir juft poyabzalni tikib bozorga chiqaradi. Bozorda etikdo'zlar kalantari (oqsoqoli) uning mahsulotini tekshiradi, yaxshi, bozorbop bo'lsa, fotiha olishga ruxsat beradi, aks holda haydab yuboradi.

Fotiha berish marosimiga katta ustalar kalantar topshirig'i bilan paykal orqali taklif qilinadi. Ziyofatga kasb (ulpagar) rahbarlari bilan domla ham chaqiriladi. Gap-gashtak tarzida o'tkaziladigan o'tirishlarda dasturxonga shirinliklar, meva-chevalar quyiladi, choy beriladi, issiq ovqat tortiladi (sho'rva, osh va hokazo). Keyin kalantar yangi sarpolar kiyingan shogirdni davraga chaqirib, ustasiga va shogirdiga shunday murojaat qiladi: «Usta, siz shogirdingizni boqsingiz, kiyintirdingiz, non, tuz va pul berdingiz, shunga rozimisiz? «Roziman!» deb javob beradi usta. Keyin shogird dan so'raydi: «Ustaga xizmat qilding, xizmatingga rozimisan?» «Roziman!» Shundan keyin usta-shogird o'rtasida suhbat bo'lib o'tadi. Shogird ustasiga qarab: «Ko'p xizmatingizni qildim, ko'p tuzingizni yedim, usta rozi bo'ling!» Usta unga javoban: «Urdik, so'kdik, koyidik, sen ham rozi bo'l», deydi. Ba'zan ayrim ustalar savollar berib, imtihonga o'xshash savol-javoblar ham bo'lgan. Marosim yakunida shogirdga ustalikka fotiha beriladi, shogird o'z ustasiga, kalantarga, imkoniyati bo'lsa hurmatli kagga ustalarga ham sarpo kiygizadi, Ayrim kasblarda usta shogirdga ba'zi ish qurollarini hadya qiladi.⁸

Asosan, chorvador aholi orasida qadimdan o'tkazilib kelingan «yasa-yusun»

¹ Дала ёзувлари. Булургур . 2010 й

marosimi ham dikdatga sazovordir. M. F. Gavrilovning xabar berishicha, bu marosim XVII asrgacha qimizxo'rlik marosimi sifatida ma'lum bo'lgan, keyinchalik tariq va kurmakdan tayyorlangan maxsus ichimlik - bo'za ichish bilan almashgan. Uzbeklarda «yasa-yusun» marosimi boshqa nomlar bilan ham ma'lum. Masalan, Toshkent va Fargona vodiysida bo'zaxo'rlik, Buxoro, Samarqand va Turkiston hamda Sayram atroflarida ko'na o'tirishlari deb yuritilgan.

Bo'zaxo'rlik o'tirishlar 30-40 kishidan iborat bo'lib, sherda (mehmonxona) uyushtirish yo'li bilan, ishtirokchilar tomonidan umumiy harakat - xarpona (harifona) yoki navbatma-navbat tartibda tashkil qilingan. Gap-gashtakdek, sherdaning raisi, uning o'ng va chap otaliqyaari (o'rinbosarlari), eshik ogasi (sherda o'tadigan uy egasi), biy va uning o'rinbosarlari bo'lgan. Marosimda buyruqyaarni bajartiruvchi yasovul, bo'za quyib tarqatadigan soqiy (kosagul) doimo xizmatda bo'lgan. Bazm ishtirokchilari kosagulga to'la bo'ysunib, uzatgan bo'zani bir nafasda ichishi, uni to'kmasligi, dastlab cho'kka tushib o'tirib, rais ruxsatidan keyin erkin, istagan tarzda o'tirishi, mast bo'lmay odob saqlashi, o'tirishni rais va eshik ogasi ruxsatisiz tark etmasligi, barcha topshiriqtarni e'tirozsiz bajarishi kabi sherda qoidalariga amal qilishi shart bo'lgan. Marosimda aytiladigan qo'shiqlarda bo'zani ta'riflash va uni tayyorlovchilarga madhiyalar aytish, hazil-mutoyiba, xursandchilik va ko'ngil ochishga da'vat qiladigan, ba'zan ijtimoiy adolatsizlik va boshqa motivlar o'z ifodasini topgan. Masalan,

Bo'zantg asli otasi kurmakdir, Mayxonada o'ynamoqdir, kulmoqdir.
Mayxonada o'ynamasang, kulmasang, ' Kim qo'yibdi mayxonaga kelmoqni ...
Bo'zani ichgan sari kayf ortadur, Barchani birdek yaratsang netadur. Bir nenaga beribsan taxtu davlat, Bir nechaning umri zoye o'tadur... Bir nechaga beribsan boz ustiga boz davlat,

Bizga ham bir qo'nib o'tsang netadur.⁹

Bunday ashula namunalarini qo'liga bo'za olgan kishi childirma jo'rligida ijro etgan. Tadqiqotchilarning fikricha, marosimda ijro etiladigan qushiqtar ham mazmun, ham matniy jihatdan, makon ga vaqt tafovutga qaramay, asosan, bir xilda

¹ Дала ёзувлари. Булургур . 2010 й

o'tkazilgan. Keyinchalik shaharlarda maxsus mayxonalar ochilib, bo'za bilan savdo qilish kuchayib, bo'zaxo'rlik marosimi o'zbeklarda saqlanmagan. Unda aytiladigan she'rlar, kuylanadigan qo'shiqlar ayrim keksa kishilar xotirasidagina qolgan, xolos.

Вилоятда qish fasli bilan bog'liq boshqa marosim va rasm-rusumlar anchagina bo'lgan. Masalan, birinchi qor yoqqanda «qor xat» tashkil qilib, yaqin do'stu birodarlariga topshirib, ziyofat qarzini yuklash, ko'p qor yog'ib hyech tinmagan paytlarda maxsus udum va marosimlar o'tkazish kabilar hozir unutilish arafasida turibdi,

Ijtimoiy-tarbiyaviy xarakterli milliy sport va musobaqalar, jismoniy mashg'ulotlar va o'yinlar o'zbeklarda qadimiy davrlardan rivojlanib kelgan. Yoshlarni jasurlik, epchillik, chaqqonlik, mardonavorlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan turli o'yinlar mavjud bo'lgan. Bolalar o'yinlarida, asosan, mahalliy aholining kasb-hunari va mashg'ulotlari o'z ifodasini topgan. Shuning uchun bolalarning o'yinchoutarida uy-ro'zg'or buyumlari, qishloq xo'jaligi asboblari, idish-tovoqlar, aravacha, belkurak, ketmon va bolg'a kabilar namoyon bo'lgan. Qish paytlari yaxmalak va qor o'yinlari, yozda ot minish va uloq, bahor va kuz paytlari oshiq, koptok, varrak va parparak uchirish, yog'och-daraxtlarga osilgan arg'imchoq (hayinchak, sarinjoq uchish kabilar o'spirinlarning sevimli o'yinlaridan. Ug'il bolalar orasida lattadan tikilgan to'p o'yini, dasta o'yin yoki chillak o'yinlari va o'yinchoqyaar bilan ham vaqt o'tkazganlar. Masalan, bolalar orasida qo'shkamalak yoki chuvalak kamon, maxsus tosh solib otadigan palaxmon yoki sopqon, pufak naycha kabi qadimiy qurollardan mashqyaar o'tkazish odat bo'lgan. Afsuski, bunday xalq o'yinlarining ko'pchiligi unutilib ketgan. Hozirgacha saqtanib kelayotgan o'yinlar va boshqa an'anaviy mashqlar keng tarqalgan. Hozir o'zbek yoshlarining ko'pchiligi zamonaviy sport turlari bilan shug'ullanib kelmokdalar. Mustaqillikka erishgan respublikamizda jismoniy tarbiyaga e'tibor juda katta. O'lkamizning barcha viloyatlarida sport inshootlarining jadal tarzda qurilishi, sportchilarimizning xalqaro va jahon bellashuvlarida faol qatnashishi bunga yorqin dalildir.

II.Bob. Diniy tasavvurlar , urf-odatlar va irimlar.

2.1. Ibtidoiy diniy tasavvurlar, urf-odatlar va irimlar.

Самарқанд халқining ijtimoiy, oilaviy-maishiy va shaxsiy turmushida diniy tasavvurlar muhim o'rinni egallab kelgan. Din ibtidoiy jamoa tuzumidan hozirgacha xalqimiz ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi sifatida jamiyatning, oila va shaxs hayotining barcha hujayralarigacha singib ketgan. Uning ildizi eng qadimiy tosh davriga borib taqaladi va butun keyingi tarixiy taraqqiyot jarayonida turli shaklda namoyon bo'lib kelgan.

Paleoantropologiya va arxeologiya fanlarining yutuqlariga qaraganda, insoniyat tarixida juda uzoq vaqt - bir necha o'n ming yillar davomida din bo'lmagan. Olimlarning fikricha, neolit, ya'ni yangi tosh davrida yashagan odamlar tabiatning dahshatli kuchlari oldida ojizligidan bir qator noto'g'ri xayoliy tasavvurlar ta'sirida bo'lganlar. Bunday holat ularni dafn marosimida ayrim irimlarga rioya qilishga undagan. Ba'zi neandertal makonlarda o'liklarning muayyan tartibda ko'mdirilganligi bunga dalildir. Shunga asoslanib, ayrim olimlar dastlabki diniy e'tiqodlar neandertallarda paydo bo'la boshlagan, degan fikrga kelganlar. Mazkur fikrni tasdiqlash uchun Janubiy O'zbekistondagi Teshiktosh g'orida ko'milgan 8-10 yashar neandertal bola jasadining suyaklari va boshqa topilmalarni ham ko'rsatadilar.¹⁰

Bu makonda jasad muayyan holatda dafn qilingan, o'likning bosh suyagi tevaragida echki shoxlari yerga qadalgan, qisqa muddat yoqilgan olov izi mavjud. Balki olov ibodat bilan bog'liq marosim tufayli yoqilgandir, deb faraz qilinadi. Teshiktoshdagi jasad buklanib, yonboshlab uxlayotgan kishini eslatadi, uning oyoq-qo'li bog'langan bo'lishi ham mumkin. Mazkur ko'mish marosimi boshqa ibtidoiy qabilalarda hozirgacha saqyaanib kelgan. Masalan, Yangi Gvineya papuaslari o'lik qaytib kelib urug'doshlarga zarar yetkazmasin deb, jasadning qo'l-oyog'ini bog'lab dafn qiladilar.

¹ Жабборов, И. Узбеклар . Т-2008. 154-бет.

Keyingi davrlarga oid ibtidoiy makonlar dafn qilish marosimlari din bilan bog'liq ekanligini aniq isbotlaydi. Qazilib tekshirilgan neolit va, ayniqsa, bronza (jez) davri go'ristonlarida har xil buyumlarning uchrashi o'sha davrdagi kishilarda dastlabki «narigi dunyo», oxirat to'g'risidagi tushunchalar ancha shakllanganligidan dalolat beradi. Demak, arxeologik kashfiyotlar tufayli, dinning qachon paydo bo'lganligi, uning ilk shakllari to'g'risidagi ma'lumotlarni Мўминобод hududidagi obidalar ham isbotlaydi.

Afsuski, arxeologik ma'lumotlar nihoyatda kam, ularni jonlantirish va to'ldirish, jonsiz buyumlarni «gapirtirish» uchun etnografik tadqiqotlarga murojaat qilishga to'ri keladi. Fanda qabul qilingan tasniflashga binoan, ibtidoiy dinning eng qadimiy shakllaridan biri totemizm bo'lib, u ilk urug'chilik jamiyati davrida paydo bo'lgan. «Totemizm» tushunchasi ayrim shaxsning yoki bir guruh kishilarning, urug' yoki qabilaning, ko'pincha, qandaydir bir hayvon yoki o'simlik bilan, ba'zan jonsiz buyum yoki tabiat hodisalari bilan g'ayritabiiy yaqinligi, hatto qon-qarindoshlik aloqasi bor, degan e'tiqodni anglatadi. Bu- dinga sig'inuvchilar o'zi yoki urug'ning barcha a'zolarini muayyan hayvon, o'simlik va boshqa narsadan kelib chiqqan degan tasavvurga tayanadi. Ayrim totemistik tasavvurlar sarqitlarini o'zbeklarning oilaviy-maishiy urf-odatlarida hozirgacha uchratish mumkin. Masalan, otga sig'inish va uning go'shtini iste'mol qilishdagi irimlar, muqaddas qushlar (kaptar, musicha va hokazo) va hayvonlarning suyagi (ayniqsa, kalla suyagi), tirnog'i, pari va hokazolarni tumor shaklida ishlatish, ba'zi jonivorlarning nomi bilan ayrim urug'lar yoki qabilalar (taka, qurt, serka va hokazo)ning atalishi, uylar va toklarda qo'chqor shoxining osib qo'yilishi kabilar totemistik tasavvurlar qoldiqyaari ekanligini tadqiqotchilar qayd qilganlar.

Yana bir qadimiy din shakllaridan fetishizm (portugalcha «feytisho» so'zidan olingan bo'lib, tumor, sehrlangan buyum degan ma'noni anglatadi) din taraqqiyotining barcha pog'onalarida ibodatning muhim elementi sifatida oddiy ilk dinlardan to hozirgi murakkab jahon dinlarigacha hammasi namoyon bo'lgan. Ammo qaysi davrda va qanday shaklda namoyon bo'lmasin, fetishizmning mohiyati shundaki, dahshatli tabiat yoki berahm ijtimoiy kuchlar oldida ojizlik

qilgan odam xurofiy qo'rqinch tuyg'ulari asosida qandaydir g'ayritabiiy kuchdan madad kutadi, uning himoyasiga umid bog'laydi. Masalan, majusiylilikda qotib qolgan murdalarga «avliyo» deb sig'inish va ikona (Xudo tasviri)ga cho'qinish, musulmon xalqlarda, jumladan, o'zbeklarda ham «muqadsas» daraxt va toshlar, har xil avliyoanbiyolarga sig'inish, turli-tuman duo va tumorlardan madad istash, ayrim buyumlar (qaychi, bolta, pichoq, isiriq, qalampir)ning ta'sir kuchiga ishonish, sanam, but kabilarni muqaddaslashtirish, fetishizm bilan bog'liq tasavvurlar ekanligi isbotlangan.¹¹

O'zbeklarda fetishizmning eng yorqin namunasi yomg'ir chaqirish marosimida qo'llaniladigan sehrli yada toshidir. Dastlab, bu to'g'rida XI asrda Mahmud Koshg'ariy ma'lumot beradi. Uning ta'rificha, turkiy xalqlarda «yomg'ir, shamol va boshqalarni talab qilish uchun maxsus toshlar (yada toshi) bilan fol ochish odatdir». Bu odat ular orasida keng tarqalgandir. Men buni yag'molar shahrida o'z ko'zim bilan ko'rdim. U yerda paydo bo'lgan bir yong'inni so'ndirish uchun shunday fol qilingan edi: «xudoning amri bilan yozda qor yog'di. Ko'z oldimda yong'inni so'ndirdi». Boshqa tarixiy-etnografik adabiyotlarning aksariyatida tarixiy xalqlarning ko'pchiligida ob-havoni o'zgartiruvchi sehrli qudratga ega bo'lgan toshlarning yada (jada), sata, da'da deb yuritilishi haqida xabar beriladi. «Yada» so'zi turli fonetik shakllardagi variantlardan iborat bo'lib, uning etimologik asoslari haqida adabiyotlarda har xil izohlar mavjud. Tadqiqotchilar «yada toshi» so'zining o'zbek tilida qadim zamonlardan buyon keng tarqalganligini qayd qiladilar. Folklorist B. Sarimsoqovning yozishicha, 1973-1982 yillarda o'tkazshtgan dala izlanipshari natijasida ko'plab axborotchilar yaqin paytlargacha o'zbeklar o'rtasida ham yomg'ir yog'diruvchi toshlar bo'lganligi, hozir esa ularning yo'qolib ketganligi to'g'risida ma'lumot berganlar. Xullas, yada toshi yordamida yomg'ir yog'ishiga erishish yoki ayrim kasalliklarni davolash kabi marosimlar juda katta arealda, ya'ni O'rta Osiyo, Sibir va Sharqiy Turkistonda yashovchi turkiy xalqlarda o'tmishda keng tarqalganligi, fetishizm dinining bu yerda muhim ahamiyatga ega bo'lganligini isbotlaydi.

¹¹ Саримсоков. Б. Ўзбек маросим фалклори . Т. «Фан» 1986. 59-бет.

Totemistik tasavvurlar va fetishizm bilan bog'liq keng tarqalgan va hozirgacha sakdanib kelgan ilk din shakllaridan yana biri magiya (sehrgarlik) hisoblanadi. Magiya yolg'on va ko'zga ko'rinmaydigan sehrli aloqa va ta'sirlarning tabiatda mavjudligini ishonirish, ayrim hollarda odam bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlarga o'zaro ta'sir o'tkazish, bir odamning ikkinchi bir shaxsga ta'sir qila bilish qobiliyatiga ega ekanligidan iborat diniy e'tiqoddir. Bu e'tiqod asosida ayrim odamlar muayyan usul va vositalar orqali tabiatga va boshqa odamlarga o'zi istaganicha foyda yoki zarar yetkazish mumkin, degan tushuncha hosil qilganlar. Buyum va hodisalarning afsonaviy kuchga ega ekanligiga ishonish baxt va omad keltiruvchi yoki balodan saqlovchi har xil tumor va tilsimlarning paydo bo'lishiga, yaxshilik va yomonlikdan iborat turdya irim va harakatlarning kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Sehrgarlik bilan tabiiy hodisalarni o'ziga bo'ysundirish yoki ayrim shaxslarga ta'sir qilish maqsadida o'tkaziladigan xatti-harakatlar va shu bilan shug'ullanadigan shaxslar bizning davrimizga yetib kelgan. Hatto hozirgi ilmiy-texnika taraqqiyoti zamonida ham sehrgarlik bilan kishilarni davolash, taqdirga ta'sir qilish mumkin degan tasavvurlarga ega ayrim shaxslarni, turli ekstrasenslarni, folbinlik va duogo'ylik bilan shug'ullanuvchi firibgarlarni uchratishimiz mumkin. Bunday tasavvurlar, bir tomondan, insonning qo'rqish hissi bilan bog'liq sehr-jodu pardasiga burkangan, muayyan maqsad sari yo'naltirilgan xatti-harakat bo'lsa, ikkinchi tomondan, shu xatti-harakatni amalga oshiradigan muhim omillardan so'z magiyasi alohida o'rinni egallaydi.¹²

Barcha sharq xalqatarida, shu jumladan, o'zbeklarda ham so'z va qattiq ko'z bilan bog'liq sehrgarlik qadimdan tarqalgan va hozirgacha kuchini saqlagan magiya turlaridan biri. Inson o'zining so'zlash iqtidoriga, so'zining sehr-jodu qudratiga doimo ishonib kelgan. Qadimdan so'z magiyasiga tayangan o'zbeklar o'zini sal noxush sezadimi yoki qoqilib, surilib ketadimi, omadi bo'lmay qoladimi yoki bir fojiga yo'liqadimi - barchasini u g'ayritabiiy harakat, yomon ko'z yoki yovuz so'z qudratidan deb biladi. Hozirga qadar o'zbeklar orasida qo'llanilib kelinayotgan kinna, badik, burey va avrash bevosita so'zning sehr-jodu qudratiga

¹ Дала ёзувлари. Булурғур . 2010 й

asoslangan. Zamonimizda keng tarqalgan ekstrasenslar ham soʻz magiyasidan zoʻr mahorat bilan foydalanadilar.

Marosim folklori toʻgʻrisida jiddiy tadqiqotlar olib borgan isteʼdodli olim B. Sarimsoqov soʻzning magik qudratiga asoslangan oʻzbek marosimidagi janrlar oʻzida xalqning qadimiy-eʼtiqodiy tasavvurlarini, demonologik qarashlarini nisbatan toʻla aks ettiradi, deb haqyai ravishda qayd qiladi. Uning fikricha, oʻzbek soʻz magiyasi janrlari u yoki bu joydagi oʻziga xos anʼana va xususiyatiga ega boʻlsada, yagona maqsadga yoʻnaltirilganligi, yagona mavzuga egaligi bilan alohida ajralib turadi. Olqish, qargish kabi janrlarda soʻz qudrati vositasida kishilarga yo yaxshilik, yo yomonlik tilash motivlari ustun turadi, yaʼni yetakchilik qiladi.

Soʻzning jodu qudratiga asoslangan oʻzbek xalq ijodidagi homiy ruhlar tomonidan tanlangan, iqtidorli ijro etiladigan janrlar: shamol aytimlari, kinna, badik kabilar yoki maxsus sehrgarlar ijro etuvchi avrash, burey-burey kabilar va keng ommaviy ijro etiluvchi olkdsh va qargʻish kabi janrlar ham asli animistik tasavvurlar bilan ham bogʻliq. Ayniqsa, birinchi guruhga mansub shomon chaqiriqlari, kinna, badik kabilar homiy ruhdar bilan «aloqada» amal qilishlari animizmga bevosita taalluqli. Bu sohada jiddiy tadqiqotlar oʻtkazgan etnograf olimlardan G. P. Snesev va V. N. Basilovlar mazkur eʼtiqodlar va irimlar toʻgʻrisida boy maʼlumotlar toʻplaganlar.¹³

Ibtidoiy dinlarning ilk shakllaridan biri animizmdir. Bu nom fanga ingliz etnografi Eduard Teylor tomonidan kiritilgan (lotincha anima - jon, ruh degani). Ibtidoiy odamlarda dastlab jon va tanning alohidaligi va jonning mustaqil yashashi mumkinligi toʻgʻrisida oddiy (primitiv) tasavvurlar paydo boʻlgan. Ular oʻz tanalari tuzilishini, odamning oʻlishi va jasadi bilan bogʻliq hodisalarni tushuna olmay, jonni mavjud bir narsa deb bilganlar. Boshqa xalqlardagidek, oʻzbeklarda ham animistik tasavvurlarning tub mohiyati ruhlar haqidagi qadimiy qarashlar bilan bogʻliq.

Odam uzoq davrlardan buyon foydali va zararli, yaxshi va yomon, ezgu va

¹ Першил. Е. История первобытного общества . М-1970. 56-с.

yovuz kuchlar ta'siri ostida o'zining ojizligini sezib yoki anglab, qo'rquv tuyg'ulari ta'sirida har xil yo'llar bilan barcha tabiat kuchlari (keyinchalik ijtimoiy kuchlar)ni ilohiylashtirib, ularni hurmatlashga, «jahlini chiqarmaslikka», rahmdil qilishga, o'z tomoniga ag'darishga harakat qilib, turli-tuman xatti-harakatlar qilgan. Hozirgacha o'zbeklarning tasavvurida ruhdar, o'z tabiatiga ko'ra, yovuz yoki yomon (shaytoniy) hamda ezgu yoki yaxshi (rahmoniy) kabi turlarga bo'linadi. Bunday dualistik qarashlarga ko'ra, ru\ltar insonga yo ijobiy, yo salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yomon ruhlar, go'yoki inson tanasiga kirib olib, uning hayotiga xavf soladi, sog'ligiga zarar yetkazadi, yaxshi ruhdar esa, aksincha insonning barcha faoliyatiga ko'maklashib unga xizmat qiladi, sog'lom saqlaydi. Ruhyaar inson badaniga oziq-ovqat, kiyim-kechak va kishilar orasidagi o'zaro muloqot orqali yoki ruhlar joylashgan manzildan o'tishi oqibatida jamiyat o'rnatgan qonun-qoidalar, xilma-xil taqiqlarni buzishi natijasida kirib joylashar emish. Shuning uchun o'zbeklarda kishilarni hushyor bo'lishga, ehtiyotkorlikka chorlaydigan har xil taqiq (tabu) irim-sirim, rasm-rusumlar keng tarqalgan bo'lib, ularning deyarli aksariyati animistik tasavvurlar negizida yuzaga kelgan. Bunga, ayniqsa, o'zbeklarda va boshqa o'rta osiyolik turkiy xalqlarda mavjud marosim folkloriga oid badik janri yorqin namuna bo'la oladi.¹⁴

Mahmud Koshg'ariy «badik» atamasiga izoh berib, badik-mumpokj larza, bazik-bezdi, ya'ni qattiq titradi, deb ta'-riflaydi. Ayrim tadqiqotchilar «bazik» so'zini «bezgak» bilan bog'lab izohlaydilar. Demak, badik kishi tanasiga suvchechak, qizilcha yoki eshakemi toshganda bemor qattiq isitmalab qaltiraydi, shu asosda kasallik nomi va uni daf qilish bilan bog'liq davolash va urf-odat yuzaga kelgan. Badikxonlarning ta'rificha, badik yomon ruhlarning oziq-ovqat, kiyim-kechak, kishilarning o'zaro muloqoti orqali inson tanasiga kirib olishi natijasida paydo bo'ladi. Xalq tasavvurida u xanada paydo bo'ladi. Bunday ta'sirga tushib qolishning asosiy sababi yomon ruhga aloqador narsalar, obyektlar bilan muloqotda bo'lishdan iborat. Ayrim olimlar badikning kishi badaniga toshishini nafaqat animistik tasavvurlar, balki odamlar o'rtasida doimo bo'lib turadigan

¹ Жабборов, И. Ўзбеклар . Т . «Шарқ» . 2008. 160-бет.

muloqot (kontagioz) magiyasi bilan bog'liq holda izohlaydilar.

B. Sarimsoqov, G. Snesev, V. Vasilov kabi olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, badikxonlik o'zbeklar bilan bir qatorda o'rta osiyolik barcha turkiy xalqlarda mavjud bo'lib, dinning ilk shakllaridan shomshtzmga borib taqaladi. «Shuni alohida qayd qilish lozimki, - deydi haqli ravishda B. Sarimsoqov, - tanlangan shaxs zimmasiga badikxonlikni qabul qilmaguncha ruhtarning ta'qibi ostida yurishi va og'ir xastalikka chalinishi hamda ana shundan keyingina homiy ruhdar tomonidan badikxon sifatida tanlanishining o'ziyoq, uning shomon shaxsiyati bilan aloqador ekanligini tasdiqlaydi...» Badikxonlar bilan uchrashuv, ularning hatti-harakatini kuzatish shuni ko'rsatadiki, turkiy xalqlarda, xususan, o'zbeklarda haqiqiy badikxon, ayni paytda, haqiqiy shomonlik bilan ham shugullanadi. Bu narsa, shubhasiz, badikxonlik tarixan shomonlik bilan aloqador bo'libgina qolmasdan, balki uning shomonlikdan ajralib chiqib, keyinchalik mustaqil kasb sifatida shakllanganligidan dalolat beradi. Bunday fikrni etnografik tadqiqotlar ham tasdiqtaydi.

Badikxon amal qiladigan usul va xatti-harakatlar, davolashga va ruhlarga nisbatan ishlatadigan buyumlarning uning shomoniylik va animistik tasavvurlar bilan bog'liqligini tasdiqlaydi. Masalan, Булуңғур туманида badikxonlari shomonlikdek bemorni yuqoriga qarab yotqizib, uning ustidan oq mato, matoning ustidan qo'y yoki sigir terisini yopib, uning ustidan maydalangan qiy, kul yoki chorrahadan olingan tuproq sepib davolashga kirishadi. Go'yoki qiy, kul, chorraha tuprog'i yoki sigir go'ngi yomon ruhlarni quvuvchi vosita emish. Shundan so'ng badikxon toldan kesib olingan yetti dona gavroncha bilan badik toshgan shaxsni asta-sekin savalab, bemorni davolashga kirishadi. Ayrim joylar (Nurota va Shahriston)da badik toshgan shaxs yotqizilmay kun botish tomonga qarata o'tirg'izib qo'iriladi. Kishi badaniga joylashib olgan yomon ruhlar uch vosita - so'z, harakat va magik qudratga ega, deb tasavvur qilinadigan buyumlar yordamida quviladi.¹⁵

Bunday vositalardan yana biri dastlabki kuni pishiriladigan bo'g'irsoq bo'lib,

¹ Дала ёзувлари. Жомбой тумани. 2010 й

u bemorlarning boshidan uch marta aylantirilib, it, mushuk yoki boshqa jonivorlar yesin deb, hovlidan tashqariga chiqarib tashlanadi, ikkinchi kuni qovurmoch qilinib, uni tomga sepib tashlaydilar. Animistik tasavvurlarga ko'ra, mazkur irim, ya'ni bo'g'irsoq va qovurmoch bemor boshidan uch marta aylantirilgan, bemor badaniga yomon ruhyaarning bir qismi ana shu buyumlarga o'tadi, ular orqali shu narsalarni iste'mol qilgan jonivorga yomon ruhyaar ko'chib bemor kasallikdan qutuladi. Ammo bu sehrli buyumlarga yomon ruhlarni ko'rish uchun magik kuchga ega maxsus so'zlarni aytish zarur. Bu so'zlarning asosiy mazmuni yomon ruhlarni haydash, bemor badanidagi toshmalarni davolashga qaratilgan. Masalan, bemorning badaniga joylashib olgan badikning o'z makonini tark etishini qat'iy talab etadigan satrlar diqqatga sazovor:

Ko'ch , Ko'ch, ko'chasan! Qavat-qavat qulog'idan ko'n, Bilqillagan buyragidan ko'ch, So'lqillagan yuragidan ko'ch, Umurtqaning uyidan ko'ch, Qobirg'aning zehidan ko'ch, Xayr qilgan qo'lidan ko'ch, Izzat qilgan tipidan ko'ch, Poytaraf oyog'idan ko'ch, O'ta turgan joyidan ko'ch. Qila turgan ishidan ko'ch,

Qirqpoya suyagidan ko'ch!

Shunisi qiziqki, bemor badanidan ruhlarni quva olmagan badikxon (parixon yoki baxshi) o'zi shu yovuz kuchlardan zarar ko'rishiga ishonadi. Shuning uchun buyruq ohangida badikni ko'chish joyini ko'rsatib do'q qiladi:

Ko'ch, ko'ch, ko'chasan! Ko'char yering men aytsam, Qizib yotgan go'rga ko'ch, Ulik yotgan mozorga ko'ch, Tegirmonntg do'liga ko'ch, Iyiq bilan biyikka ko'ch, Trg'da yurgan kiyikka ko'ch, Qizil egar naqshiga ko'ch,

Boqolmagan baxshiga ko'ch.

O'zining qudratli so'ziga ishonuvchan badikxon yomon ruhlarga qarata po'pisa bilan: «kuchirmasam qo'ymayman», deb murojaat qiladi. Yana bir muhim tomoni shundaki, badikning ko'chish obyektlarining ichida jonsiz buyumlar bilan birga har xil hayvonlar va hatto momolar ham tilga olinadi:¹⁶

Ko'ch, ko'ch, ko'chasan! Ko'char yering men aytsam, Momo bo'lsang,

¹ Дала ёзувлари. Жомбой тумани. 2010 й

ko'lga ko'ch, Ziyon bo'lsang, cho'lga ko'ch,

Arvoh bo'lsang, go'rga ko'ch.

Mazkur satrlar badikxonlikning O'rta Osiyoda qadimdan keng tarqalgan momolarga sig'inish tasavvurlari bilan bog'liqligini ko'rsatib, genetik jihatdan uning nafaqat shomoniylilik, balki matriarxat davriga oid ba'zi elementlar bilan ham aloqador ekanligini tasdiqtaydi. Ma'lumki, momolar ibodati qadimgi ayollar xudosi obrazi, kekxa ayollar ruhi bilan bog'liq bo'lib, ular hozirgacha ayollarga ko'z ochishda, nasl qoldirishda va boshqa yovuz kuchlardan, kasalliklardan saqlab qolishda homiylik qilgan. Ammo o'zbeklarda momolar va ajdodlar ibodati (kul'ti) arvohlar (animizm) e'tiqodi bilan qorishib ketgan. Mazkur badik matnda momo, arvoh va ularning ko'chish obyektlari ajratilib, bu narsa B. Sarimsoqovning fikricha, «qadimgi ayollar ruhiga borib taqaluvchi momolar kultining keyinchalik mustaqil kult darajasiga ko'tarilganidan dalolat beradi».

Arxeologik va etnografik tadqiqotlar O'zbekiston eng qadimiy davrlaridan tabiatdagi fasl o'zgarishi bilan bog'liq marosimlarda ayol xudolar obraziga sig'inish urf-odati mavjudligini tasdiqlaydi. Tabiat hodisalari va kuchlarini ilohiylash, hamisha tirilib turadigan tabiatning abadiyligini ifodalovchi motam-ma'raka marosimining markaziy siymosiga aylangan xudo obrazi ayollarning homiysi sifatida butun Sharq mamlakatlarida, qadimgi Misr, Yunoniston, Rimda o'tkaziladigan maxsus bayramlarda namoyish qilingan. Hozirgacha saqlanib kelgan momolar obrazi, bir tomondan, ayollarning homiyligini ifodalovchi g'ayritabiiy such (xudo)lar obrazi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, kekxa ayollar ibodati (kulti) bilan bog'liq animistik tasavvurlarni ifodalaydi.¹⁷

Mazkur urf-odat va irimlarning hozirgacha ko'p elementlari saqlanib qolgan, ayniqsa, o'lim marosimida namoyon bo'ladigan qadimiy diniy tasavvurlar asli animistik xarakterdagi ajdodlar arvohiga sig'inish ibodati bilan bevosita bog'liq. Jon haqidagi tasavvurlarning kelib chiqishi o'likka bo'lgan munosabatni ancha murakkablashtirgan, O'lim, dastlab, hyech uyg'onmaydigan uyqu, deb tasavvur qilingan (hozirgacha ishlatiladigan «mangu uyquda yot!», degan iborani eslatish

¹ Жабборов, И. Ўзбеклар . Т. «Шарк» . 2008. 166-бет.

mumkin) va «uxlaganning» qavmu qarindoshlari unga yoki uning ruhiga g'amxo'rlik qilib, har xil rasm-rusum va irimlarga rioya qila boshlaganlar. Keyinchalik paydo bo'lgan sodda tasavvurlarga binoan, kishi o'lgandan so'ng uning joni yashashda davom etadi. Suv yoki yer ostida, osmonda, tog'lik yoki changalzor o'rmonlarda arvohtar dunyosi mavjud degan g'oya va tushurtcha asosida ruhlarni hurmatlash, ularni doimo xotirlash, g'amxo'rlik qilish kabi turli marosim, urf-odat va irimlar paydo bo'lgan. Hozirgacha xalqimiz ajdodlar arvochini eslab sham yoki («ota-bobolar chirog'ini o'chirma» degan iborani eslaylik), hayitlarda is chiqarish, maxsus taomlar pishirib mozar boshiga chiqish, uchi, yettisi, yigirmasi, qirqi va yilida aza oshi kabilar animistik tasavvurlar asosida paydo bo'lgan urf-odatlaridir. Aslida Islom paydo bo'lgandan keyin janoza vaqtida, ma'rakalarda amal qilinadigan juda ko'p irimlar, avliyolarga qurbonlik atash, domla-imom va g'assol (mayyitni yuvib, pokizalab kafanlaydigan kishi)ga bershtadigan pul va boshqa xudoyilar hamda sadaqalarning barchasi o'tgan ajdodlar arvochini xursand qilish maqsadida hozirgacha o'tkaziladigan urf-odat va marosimlar hisoblanadi.

Tarixiy-etnografik tadqiqotlarga qaraganda, dastlabki diniy tasavvurlar mifologiya bilan bog'liq bo'lib, xalq ijodining turli janrlarida, ayniqsa, afsona va rivoyatlarda, ertak va dostonlarda, hatto xalq o'yinlari va raqslarida saqlanib kelgan. Masalan, o'zbeklarda nishonlanadigan mavsumiy sayillarda, Navro'z, «Lola» va «Qizil gul» xalq bayramlarida ijro etiladigan kuy va raqslarda sehrgarlik va totemistik tasavvurlarning elementlari yorqin namoyon bo'ladi. Masalan, Xorazmda o'tkaziladigan bayram sayillaridagi o'yin-kulgilar, yor-yorlar, qo'shiq aytishlar, kichik janrdagi xalq og'zaki dramalari, «chag'alloq» va «sulgin» o'yinlari va hatto mashhur «lazgi» raqsida totemistik va sehrgarlik tasavvurlari bilan bog'liq elementlar aniq seziladi. Ayniqsa, «chag'alloq» o'yini pantomimasida raqqosning baliqchiquishning baliq tutish paytidagi xarakatlarini do'ppi yoki piyola atrofida bo'ynini cho'zgan holda nKien qo'lini qanot qilib, pirpiratib, qushday ovoz chiqarib, xarakat va imo-ishoralar bilan ifodalashi

ibtidoiy-totemistik ruhdagi raqslarni eslatadi.¹⁸

Utgan ajdodlar arvofiga sajda qilish, ularni xotirlash, tabiat kuchlariga sig'inish natijasida juda ko'p muqaddas joylar va avliyolar vujudga kelgan. Asli animistik tasavvurlar bilan uzviy bog'langan avliyo-anbiyo, «muqaddas» joylar, tabiat tea ajdodlarga sig'inish kabi ibtidoiy-diniy tasavvurlar keyinchalik jahon dinlarining tarkibiy qismiga aylangan. Uzbek tilida uchraydigan, odatda «mozor» yoki «avliyo» nomi bilan dong'i chiqqan muqaddas joylar turli zamonlarga taalluqli bo'lib, har xil diniy tasavvurlarni o'zida mujassamlashtirgan sinkretik (aralash, qurama) xarakterdagi diniy e'tiqodlardir. Eng qadimiy davrlarga oid tabiat kuchlariga sig'inish bilan bog'liq muqaddas hisoblangan uyulma yoki g'alati shakldagi toshlar, yerga qadalgan tayoq yoki hamma yog'ig'a latta-puttalar osilgan yakka daraxtlar hozirgacha ko'p joylarda uchraydi. G'ayritabiiy shakldagi g'orlar va qoyalar, shifobaxsh buloqyaar va keksa daraxtlar ham ziyoratg'ohlarga aylangan. Masalan,

Ajdodlar e'tiqodi bilan bog'liq ziyoratgohyaar ichida mashhur tarixiy shaxslar va yirik din arboblari nomi bilan atalgan, shuhrat qozongan mozorlar bilan bir qatorda ayrim mahalliy qishloq aholisining ziyoratgohi hisoblangan kichik avliyolar yoki noma'lum mozorlar ham mavjud. Ilmiy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, avliyolarni ziyorat qiluvchilarning butun xatti-harakati (qurbonlik qilish, yog'och yoki daraxtlarga latta osish, duo o'qitish kabilar)da islomgacha mavjud bo'lgan ibtidoiy-fetishistik, animistik, magik (sehrgarlik), hatto tabiat va ajdodlarga sig'inish kabi diniy e'tiqodlarning elementlari muhim o'rinni egallaydi. Urug'-jamoachilik munosabatlarining keying'i taraqqiyotida, ya'ni matriarxat (ona urug'i) davrida din tabiatga sig'inish yo'lidan rivojlanadi. Bu davrda dehqonchilik, ayniqsa, rivoj topadi va shu asosda ona yerga, Quyoshga, Oy va boshqa tabiat hodisalariga sig'inish kuchayadi. Tabiat kuchlari va ayrim elementlar ayol obrazi sifatida gavdalanadi va shunga muvofiq rularning ko'pchiligi ayollar nomi bilan ataladi. Jamoada va xo'jalikda ham matriarxat an'analari yetakchi rol o'ynaydi. Erkak va ayollar o'rtasidagi ijtimoiy mehnat

¹ Ko'rsatilgan asar. 167-bet.

taqsimoti tufayli, shu bosqichda xo'jalik va jamiyatda ayollar mavqeyining ko'tarilishi uning sababidir. Lekin patriarxal (ota urug'i) munosabatlarining paydo bo'lishi asta-sekin butun jamiyat ustqurmasida erkaklarning rolini ko'tardi, natijada diniy tasavvurlarda ham o'zgarish ro'y berdi. Erkaklar obrazidagi xudo va ruhyaar ayol' ruhdarni, xudolarni siqib chiqardi. Monogam patriarxal oila paydo bo'lishi bilan erining oilasiga ko'chib o'tishiga majbur bo'lgan ayol dastlabki vaqtlarda o'z ibodatiga rioya qilgan, keyinchalik erining diniga o'tgan va uning xudosiga sig'ingan. Bu davrda tabiatga va ajdodlarga sig'inish yana ham rivojlanadi, oila jamoasining o'sishi bilan urug a'zolari o'z uyiga, o'chog'iga ko'proq sig'ina boshlaydilar, ya'ni «o'choq ibodati» kuchayadi.

Ibtidoiy dinlarning sinfiy jamiyat dinlariga o'tish jarayoni, dastavval, jamoa a'zolari ichidan mustaqil kohinlar ajralib chiqishida, maxsus ibodatlar va diniy tashkilotlarning paydo bo'lishida yorqin ifodasini topgan. Urug'-qabila boshliqlarini ilohiylashtirish, kurashchan qabilaviy xudolarning paydo bo'lishi, endi kurtak otayotgan xususiy mulkchilik va quldorlik munosabatlarini muqaddaslashtirish, kohinlikning maxsus kasb sifatida tabaqalanishi kabi muhim o'zgarishlarni ibtidoiy jamoa tuzumining oxirgi bosqichida aniq kuzatish mumkin. Kishilar urug'chilik tuzumi yemirilishi bilan faqat tabiat kuchlarinigina emas, ijtimoiy munosabatlarning stixiyali kuchlar oldida ham ojizligini seza boshlaydi. Natijada urug', qabila boshliqdari, buyuk ajdodlar ilohiylashtiriladi, ilgari nomsiz, maxfiy hisoblangan arvohlar tabaqalanib, muayyan xo'jalik faoliyatining homiysidagi xudolar obraziga kira boshlaydi.

2.2. Zardushtiylik va boshqa dinlar bilan bog'liq diniy tassavurlarning ijtimoiy xayotda aks etishi .

Qabilalar ittifoqining paydo bo'lishi, g'olib qabila xudosi boshchiligida ko'pxudolik (politeizm)ni vujudga keltiradi. Arxeologik kashfiyotlar, yozma manba («Avesto»)larga qaraganda, mulkiy tengsizlik, ya'ni boy-kambag'allik narigi dunyo, oxirat to'g'risidagi tasavvurlarda yorqin namoyon bo'ladi. Kishining o'lgandan keyingi hayoti foni dunyo hayotining davomi degan tasavvurlar asosida dabdabali marosimlar o'tkazish, katta qurbonliklar va u dunyoda zarur, nihoyatda boy buyumlar, qurol-aslahalar bilan dafn qilish sinfiy jamiyatning paydo bo'lishidan darak beruvchi e'tiqodlardir. Bunday diniy tasavvurlar Yevropada va Osiyoning ko'p qismida o'tkazilgan arxeologik qazilmalar tufayli ham yaqqol namoyon bo'ldi. Demak, bu davrda tabiat kuchlari bilan bir qatorda ijtimoiy uchlar ham maydonga chiqadi, odamga qarshi turuvchi bu kuchlarga tushunilmaydi, ular yot bo'ladi va tabiat kuchlari singabi zohiriy zaruriyat sifatida o'jiz inson ustidan hukmronlik qiladi. Albatta, bu jarayon nihoyatda murakkab va uzoq davrni o'z ichiga qamrab oladi. Oqibatda, rivojlangan quldorlik jamiyatiga kelib, din maxsus mafkuraviy qurol sifatida o'rta chiqadi.

O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi antik davri tarixi bu yerda yashagan barcha elatlarning davlat diniga aylangan zoroastrizm (zardushtiylik) diniy e'tiqodi bilan bog'liq. Ayrim tadqiqotchilarning isbot qilishicha zardushtiylik dini O'rta Osiyoda paydo bo'lib, Eronga, Ozarbayjonga tarqalgan va birinchi ming yillik o'rtalarida davlat diniga aylangan. Zardushtiylik yoki zoroastrizm nomi bu dinga asos solgan afsonalarga chulg'angan payg'ambar Zorotushtra (Zoroastr) ismi bilan bog'liq. Ammo u fanda boshqa nom bilan ham ataladi: unga bosh xudo Axuramazda ismi bilan mazdakizm, bosh muqaddas kitob «Avesto» nomi bilan avestaizm, asosiy e'tiqod - olovga sig'inish bo'lganligi tufayli, otashparastlik yoki keyingi davrlarda undan ajralib chiqqan yirik mazhab xudo Mitra ismi bilan mitraizm deb nom berilgan. Bu dinning asosiy asari «Avesto» O'rta Osiyo va qo'shni

mamlakatlarning (miloddan avvalgi II ming yillik oxirlaridan I ming yillikning keyingi asrlarigacha bo'lgan davrni qamrab olgan) tarixi va madaniyatini o'rganishda muhim yozma manba bo'lib xizmat qiladi.¹⁹

«Avesto» rivoyatlaridan birida afsonyviy birinchi odam va eroniylarning birinchi podshosi Yima haqida unga osmon Axuramazda bergan yerlarning kengaytirilganligi to'g'risida Hikoya qilinadi. Yima uch yuz qish hukmronlik qilgan. Shu davr ichida uning yerida o'simliklar, qushlar, hayvonlar, chorva va odamlar shuncha ko'payib ketganki, turar joy ham qolmagan, yerga ham og'irlik tushgan. Keyin Yima o'z odamlarini yangi makon izlab Quyosh yo'li bilan janubga boshlagan va u yerda 600 yil hukmronlik qilgan.

Ayrim olimlarning fikricha, bu afsonaviy o'lka muqaddas daryoning quyi oqimida joylashgan Ko'hna Xorazm deb hisoblanadi. Arxeologik tadqiqotlar ham bu fikrni tasdiqlaydi. Beruniy bergan ma'lumotlarga qaraganda, Xorazmga afsonaviy qahramon Siyovush kelib, dastlab davlatga asos solgan davr xorazmcha yil hisobining boshlanishi sanasi «buyuk kuchish». lar davriga to'g'ri kelishi diqqatga sazovordir. Milodning II asriga qadar hukmronlik qilgan mazkur afsonaviy siyovushlar sulolasining asoschisi «Avesto»da Siyovarshon nomi bilan tilga olinadi, uning obrazi xalq eposida, afsonayarda yarim xudo qiyofasida gavdalanadi. Yima esa Firdavsiyning o'lmas eposi «Shohnoma»da Jamshid obrazida namoyon bo'ladi. Jam (yim) kishi ismi, (3-nuroniylar degan ma'noni anglatadi. Uning podsholik qilgan davri yorug'lik zulmat ustidan, adolat yovuzlik ustidan, insonlar devlar ustidan uzil-kesil g'alaba qilgan, hatto o'lim yengilgan, har bir dardga davo topilgan deb ta'riflanadi, eroniylarning afsonaviy tarixida «oltin davr» hisoblanadi. «Shohnoma»dagi bir afsonaga ko'ra, Jamshid avlodi Hushang Prometey singari olov kashf etib, sada bayramida kishilarga o'rgatib, uni muqaddaslashtiradi. Mazkur afsonada zardushtiylik dinining asosiy e'tiqodi olovga sig'inishning paydo bo'lishi haqida hikoya qilinadi. Bu dinning eng muhim belgisi uning dualistik xarakterga ega ekanligidir. Unda yorug'lik, ezgulik xudosi Axuramazda (Ormuzd) va qorong'ulik, yovuzlik xudosi Angra Maynyu (Ahriman)

¹ Жабборов, И. Ўзбеклар . Т . «Шарқ» . 2008. 169-бет.

o'rta asrlardagi doimiy jiddiy kurash g'oyasi yotadi. Birinchisi - dehqonchilik o'troq aholining, uy hayvonlarining, ikkinchisi - jangovar, urushqoq ko'chmanchi qabilalarning, yirtqich hayvonlarning homiysi deb ta'riflanadi.²⁰

Zardushtiylik ta'limotiga binoan, kelajaqda Axuramazda Axrimon ustidan g'alaba qozondi, butun insoniyat birikib yagona davlat va yagona til o'rnatiladi. Bunday demokratik g'oyalar zardushtiylikning uzoq davr xalq orasida saqyaanib kelishiga sabab bo'lgan.

Miloddan avvalgi IV-I asrlar Qadimgi Xorazmning gullab-yashnagan davri bo'lib, bu davrga oid yodgorliklar juda ko'p va xilma-xildir. Xorazmning antik davrdagi shaharlarining deyarli barchasi vohani dashtdagi qo'shni qabilalardan mudofaa qilish maqsadida qurilgan. Amudaryoning o'ng tomonidan sharqdan g'arbga qarab birin-ketin cho'zilgan Kangaqal'a, Jonbasqal'a, Bozorqal'a, Qo'rg'oshinqal'a, Qirqqiz, Ayozaqal'a, Burli-qal'a va Tuproqqal'a sug'orish inshootlarining etagida bir-biriga yaqin va qator qilib kurilgan. Bir rejaga asoslangan mudofaa tizimi va taraqqiy qilgan zo'r sug'orish inshootlarining mavjudligi Xorazmning qudratli markazlashgan davlat bo'lganligini ko'rsatadi.

O'rta Osiyodagi xalqtar ilk o'rta asr davrida ham jamoa xo'plangan paytlarda umumiy marosim taomlarini pishirganliklari, odamlar to'planishi uchun laxsus uylar bo'lgani, bu uylardagi o'choqlarda doimo o't yonib turgani haqida Beruniy va boshqa bir qancha mualliflar ham yozib qoldirganlar. Ma'lumki, yaqin vaqtlargacha, Tojikistonniig ayrim tog'li tumanlarida maxsus otashxonali uylar mavjud bo'lib, bu yerda erkaklar to'planishib gap berganlar. O'zbeklarning to'y va boshqa ayrim marosimlarida gulxan yoqish odati hali ham uchraydi. Butun antik davrda O'rta Osiyoda hukmronlik qilgan zardusht (zoroastrizm) diniga binoan, shuningdek, eski urf-odatlarga e'tiqod qiluvchilarning tushunchasiga qaraganda, o'tga siginish turli falokat va ins-jinslardan saqlar, turmushda baxt va muvaffaqiyatlar keltirar emish.

Самарқанд вилоятида yodgorliklarda ham juda ko'p uchraydigan haykalchalar (arxeologlar tilida terrakotalar), idishlarga solingan otning rasmlari

¹ Жабборов, И. Ўзбеклар . Т . «Шарк» . 2008. 169-бет.

qadimgi Самарқандликларda zardusht dinidan tashqari tabiat kuchlariga, hayvonlar, chunonchi, otga sig'inish e'tiqodi katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Tarixiy manbalarda ham massagetlar otga sig'inganligi to'g'risida fikrlar bor. Serhasham kiyimli aslzoda kishini tasvirlovchi juda ko'p haykalchalar unumdorlik xudosi, suv va sug'orish inshootlarining homiysi Anaxta obrazi bilan bog'liqligiga hyech shubha yo'q. Narshaxiyning yozishicha, zardusht dinidagi buxorolilar har yili Navro'z bayramida bozorda loydan yasalgan xudo haykalchalarini olib, eskisini sindirganlar. Yedgorliklarda topilgan haykalchalarning deyarli hammasining sindirilganligi bu fikrni isbotlaydi. Beruniy asarlarida Ham Narshaxiy hikoyasiga o'xshash ma'lumotlar, rivoyatlar mavjud.

Tasviriy san'at namunalari ichida jimjimali ossuariylar alohida o'rinni egallaydi. Yuqorida aytilganidek, bu davrda butun O'rta Osiyoda, Eronda, Ozarbayjonda zardushtiylik dini rivoj topgan edi. Zardushtiylik diniga binoan, o'liklarni yerga ko'mish, suvga tashlash gunoh deb hisoblanib, jasad, ni yo kuydirganlar, yoki go'shti va terisini yirtqich hayvon qushlarga yedirib, suyaklarini maxsus sopol quti (ossuariy)larga solib, ayrim binolarda sautaganlar. Shunday qutilarni O'rta Osiyoning hamma yerida uchratish mumkin. Mana shu va boshqa dalillarga asoslanib, ko'p olimlar zardushtning vatani O'rta Osiyo deb hisoblaydilar.

Qo'yqirilganqal'a tevaragida uchraydigan ossuariylar xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bu ossuariylar qopqoqtarining ko'pchiligida haykalchalar yasab qo'yilgan. Qo'yqirilganqal'adan taxminan bir yarim chaqirim shimolda qum tepalar orasidan topilgan kvadrat shakldagi ossuariyning qopqog'ida chordona qurib o'tirgan erkakning haykali juda ajoyibdir. U kalta mo'ylovli, soqoli xorazmcha qilib qo'yilgan, kiyimi naqshdor qilib to'qilib, kamari uchida qo'y boshini tasvirlovchi bezak borligi ko'rinib turibdi. Ossuariylar ichida ot shaklida qilinganlari ham uchraydi. «Shohnoma»da uchraydigan ayrim qahramonlarning nomi (Luxrasp, Gushtasp, Arjasp yoki xorazmdagi Xazorasp qal'asi) ot (asp) bilan bog'liq ekanligini e'tiborga olganda, bu tasvirlar muayyan diniy e'tiqodlar bilan bog'liq deyish mumkin.

Qal'aliqirda so'nggi yillarda topilgan qumtoshdan, loydan va ganchdan, shuningdek, sopoldan yasalgan turli xil ossuariylar ichida yumaloq qopqog'ida kush tasviri berilgan kvadrat ossuariylar ajralib turadi. Ularning totemizmga oid ekanligi shubhasiz. Antropomorf, ya'ni odamsimon haykallar bir necha arxeologik qazilmalarda topilgan. Quyosh xudosi Mitraga bag'ishlab har yili maxsus bayramlar (mitragan) nishonlangan. Bu yunonlardagi o'simlik ma'budasi Dionisga bag'ishlangan vakxanaliya bayramiga o'xshash kuzda, yig'im-terim vaqtida o'tkaziladigan tabiat hosildorligiga bag'ishlangan, xupgchaqchaq bayram hisoblangan. Qadimgi Parfiya poytaxti Nisada topilgan marmardan yasalgan nihoyatda go'zal Rodogunda haykali muhabbat tuyg'usi, go'zallik va maftunlik xudosi hisoblangan Afrodita obrazini eslatadi. Mashhur «Amudaryo xazinasi»ga tegishli juda ko'p oltin-kumush buyum va bezaklardagi burgut boshli, sher gavdali va qanotli bahaybat maxluq va boshqa obrazlar qadimgi Sharq xudolariga o'xshaydi.

Yunon-Baqgriya kumush tangalarida tasvirlangan, bir tomonida qanotli otlar, yunon xudolari tasviriga o'xshash homiy ma'budalar obrazi bu davrda sikretizm diniy tasavvurlarning keng tarqalganligidan dalolat beradi. Kushon imperiyasi davrida bu an'analar kuchayadi va chuqurlashadi.

Baqtriya yemirib, uning xarobalari o'rnida paydo bo'lgan shonlar imperiyasi juda qisqa muddat ichida qudratli davlatga aylanadi. Imperator Kanishka (78-123) hukmronlik qilgan oxirlarida Kushon davlati o'z hududini nihoyatda kengaytiradi va zamonining buyuk davlatlari Rim, Parfiya va Xitoy bilan bir qatorda turadi. Kanishkaning din sohasidagi siyosati natijasida Kushon imperiyasida, jumladan, O'rta Osiyoda ham to arab istilosigacha buddizm dini keng tarqala boshlagan. Hattoki, Xitoyga ham buddizm Kushon imperiyasi orqali tarqalgan. Buddizmning eng muhim asarlaridan biri Amitaba Sugra Kushon mamlakatidan Xitoyga 147 yilda yulib keltirilganligi to'g'risida Xitoy solnomalari xabar beradi.²¹

O'rta Osiyoda, shu jumladan, O'zbekistonda buddizm naqadar muhim o'rinni

¹ Жабборов, И. Ўзбеклар . Т . «Шарк» . 2008. 174-бет.

egallaganligini keyingi yillarda ugkazilgan arxeologik qazilmalar ham tasdiqdaydi. Janubiy O'zbekiston va Turkmanistonda, Tojikistonda va Afg'onistonda arxeologlar kashf etgan budda ibodatxonalarining xarobalari, ayniqsa, zo'r mahorat bilan yasalgan katta-kichik budda haykallari buning yorqin dalilidir. Qadimgi Termiz xarobalaridan topilib, tekshirilgan yirik ibodat markazi (unda 20-25 ta budda majmui borligi aniqlangan) diqqatga sazovordir. Ajoyib san'at va me'morchilik namunasi bo'lgan kushon zodagonining qasri hisoblangan Xolchayonda budda inshootlari kashf etilgan. Ayritom, Bolalitepa, Dalvarzintepa va Fayoztepa yodgorliklari majmui markaziy budda ibodatxonasi joylashgan Qoratepada topilgan arxeologik materiallar o'sha davrdagi iste'dodli ajdodlarimizning yuksak moddiy madaniyati, diniy tasavvurlari, umuman, dunyoqarashi va urf-odatlarini keng tasavvur qilishga imkon beradi.

Mazkur obidalarni tekshirish uzoq o'tmishdagi ajdodlarimizning moddiy va ma'naviy madaniyatida, shu jumladan, diniy tasavvurlarida ham antik madaniy an'analar bilan bir qatorda, yangi an'analar paydo bo'lganligini ko'rsatadi. Chunonchi, sopol idishlarda tasvirlangan hayvonlar (asosan, ot, qo'y, Qo'chqorlar, maymun va fil) kushonliklarning diniy tushunchalarida, bir tomondan, Shimoliy Qora dengiz bo'ylarida, Sharqiy Yevropa va Qozog'iston dashtlarida yashagan qabilalarning ta'siri borligi, ikkinchi tomondan (maymun va fil obrazi), Hindiston xalqlari diniy mafkurasining ta'siri borligidan guvohlik beradi. Topilgan buyumlarning ko'pchiligi bu davrda zoroastrizm va buddizmdan tashqari har xil totemistik va sehrgarlik (magiya) diniy tasavvurlar muhim rol o'ynaganligini ko'rsatadi.

Uzoq tarixiy davr davomida turli-tuman diniy tasavvurlar I ta'sirida bo'lib kelgan o'zbeklar VIII asr boshlarida arablar. ning bosib kelishi bilan asta-sekin islom diniga o'ta boshlay I dilar. Yangi jahon dinining mahalliy elatlar orasida tarqalishi bir necha asrga cho'zilgan. Islom dini mahalliy xususiyatlarni hisobga olgan holda xalq orasida keng tarqalgan qadimiy ko'hna diniy tasavvurlar, urf-odat va marosimlar, ibodat va g'oyalarni o'zida mujassamlashtira boshlagan. Natijada, Muhammad Payg'ambarning ta'limoti O'rta Osiyo sharoitida bir oz qurama

(sinkretik) xarakterda namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, islom dini paydo bo'lgandan keyin, Muhammad vafotidan so'ng musulmonlarga bosh bo'ladigan, ham diniy rutba, ham dunyoviy hokimlik qiladigan munosib xalifa (payg'ambarga «o'rinbosar»)ga ehtiyoj yuzaga keladi. Yangi feodalizm tuzumi mustabid hukmronlarga muhtoj bo'lganligi tufayli, endi yaratilgan arab davlati toj-taxti uchun payg'ambar avlodlari va yaqinlari orasida kurash bo'lib, musulmonlar «shia» va «sunna» oqimlariga bo'linib ketadilar. Islomdagi keyingi asrlarda paydo bo'lgan har xil mazhablar asli o'sha davrdagi ma'naviy va ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlarning muhim oqibati sifatida kelib chiqqan edi.²²

Feodalizm tuzumi inqirozga uchragan quldorlik tuzumining xarobalari o'rnida paydo bo'lar ekan, bu jarayon ijtimoiy ong shakllarining xalq harakatlari bilan chirmashib ketgan har xil yo'nalishlar va mazhablarda, yeretiklik ta'limotlarida o'z ifodasini topadi. Mazkur hodisa va oqimlar, ayniqsa, istilo qilingan mamlakatlarda, dastavval, O'rta Osiyoda ham ro'y bergan edi. Bunga xorazmlik Xurzod va buxorolik Muqanna qo'zg'olonlari, qodiriylar harakati, mu'atazila va so'fiylik mazhablari yorqin dalil bo'la oladi. Bunday turli ta'limot, oqim va mazhablarning paydo bo'lishi Islom dinining sinkretik mohiyatini yana ham kuchaytirgan edi.

O'zbeklar, asosan, sunna mazhabiga e'tiqod qilib kelmoqdalar. Yaqin o'tmishda, sovet tuzumi o'rnatilishigacha Islom dini inson hayoti faoliyatining barcha tomonlarini qamrab olgan: uning dunyoqarashini, maishiy va madaniy turmushini, huquqiy va oilaviy tartiblarini, butun turmush tarzini, shu bilan birga, unda qadimiy diniy e'tiqod va tasavvurlarning ko'p elementlari mujassamlanganligi mahalliy islomning o'ziga xos xususiyatlarini yuzaga keltirgan. Hatto musulmonchilikning besh ta asosiy qoidasi (farz)ni ado etishda o'zbeklar orasida o'ziga xoslik paydo bo'lgan.

Dastavval, musulmon bo'lish uchun islomning eng asosiy

Ў3 g'oyasi hisoblangan kalima qaytarish, ya'ni yakka xudolik ʼtykodini tasdiqlovchi! sura so'zlarini aytish orqali kishi zinyng shohid, itoatguy ekanligini

¹ Жабборов, И. Ўзбеклар . Т. «Шарк» . 2008. 176-бет.

isbotlashi zarur bo'lgan. Kanday ish boshlamasin, mo'min kishi yagona Allohning rahmdil va shafqatli ekanligini tasdiqlovchi muqaddas so'zlar (bysmillahir rohmanir rohiym)ni aytishi shart.

Musulmonchilikning ikkinchi asosiy vazifasi-har kuni majburiy besh vaqt namozini o'qishdan iborat. Namoz islomda eng muhim farz hisoblanadi. Namoz machit tomi yoki minoradan iviaxcyc shaxs (azonchi, muazzin) orqali jar qilinadi. Machitga borib namoz o'qish Buxoro amirligida juda ham majburiy burch hisoblanib, namoz o'qishni buzgan kishi qattiq jazolangan. Ayniqsa, bu yerda tongda o'qiladigan bomdod namozi machitda o'qilishi shart bo'lgan. Maxsus amaldor (rais) ertalab machitlarni aylanib chiqqan, kimki namozga sababsiz kelmagan bo'lsa, qattiq ogohlantirilgan yoki jazolangan. Turkiston general-gubernatorligida bunday qatiyatlik bo'lmagan, ammo machitga qatnash jamoatchilik fikri tomonidan boshqarilgan. Uni bajarmagan kpshini «kofir bo'ldi» deb qoralaganlar. Namozni uyda, machitda yoki dalada ham o'qish mumkin, lekin mo'min uni o'qishdan oldin o'zini poklashi (tahorat qilishi) shart. Hozir o'zini chinakam musulmon deb hisoblaydigan fuqarolarning ko'pchiligi besh vaqt namozni, shuningdek, majburiy bo'lgan juma namozini ham ado etadilar. Xotinlar machitga namozga qatnamaydilar.²³

Musulmonchilikning uchinchi muhim vazifasi - ro'za tutishdir. Bir oy muddat (ramazon oyi) ichida go'dak norasidalar, sayyohlar va kasallardan tashqari, har bir musulmon tong otishdan kun botguncha yeyish, ichish, turli maishat va hokazolardan o'zini tiyishi va butun vujudini Allohga bag'ishlashi shart. Ro'za oyida kundalik besh vaqt namozdan tashqari qo'shimcha tarovih' namozi o'qilishi tavsiya qilinadi. Namozni jamoa bilan o'qiganlik uchun qo'shimcha savob yoziladi. Ramazon oyi davomida Turkiston o'lkasi va xonliklarda kechki bozorlar ishlab, sayillar o'tkazilgan, unda sozandalar, askiyabozlar, raqqos (bachcha)lar tomoshalar ko'rsatganlar, turli shirinliklar va taomlar pishirilib, xarid qilingan. Ko'p oilalar qavmu qarindoshlar, yoru birodarlar va keksa qo'shnilarni chaqirib iftorlik berganlar. Ro'za tutagach, katta hayit sayillari o'tkaziladi. Ramazon

¹ Дала ёзувлари. Булурғур . 2010 й

bayrami kunlari machitda jamoa to'planib hayit namozi o'qiladi,

Ikkinchi katta diniy bayram Qurbon hayiti ham zo'r tantanalar bilan shavva oyida uch kun davomida nishonlanadi.

Bu hayitda kambag'allarga atab sadaqalar beriladi, Qur'on va hadislar o'qiladi, o'z gunohlarini yuvish uchun ayrim bandalar jarima to'laydilar va hokazo. Odatda, Alloh nomiga qurbonlik qilinadi, so'yilgan narsaning go'shti kambag'allarga va qisman bayram taomlariga ishlatilib, jamoaga tarqatiladi. Hayit bayramlarida sarpolar yangilanadi, o'zaro mehmondorchilik kuchayadi. Hozir O'zbekiston Respublikasida har ikki hayit kuni ham dam olish kuni deb e'lon qilinib, katta bayramlar o'tkazilmoqda.

Qurbon hayiti musulmonchilikning yana bir muhim sharti - hajga borish vaqtiga to'g'ri keladi. Makkaga ziyorat (haj)ga borish zulhijja oyining birinchi o'n kunligida bo'lib, Mina vodiysida qurbon bayrami tantanalari bilan tugaydi. Tarixiy manbalarga qaraganda, faqat O'rta Osiyo va Qozogistonda o'tgan asr oxirlarida 1500 dan ortiq kishi hajga borgan. Sovet mustamlakachiligi davrida Makka ziyoratiga borish man qilinib, nihoyatda chekyaab qo'yilgan edi. Masalan, 1989 yili faqat O'zbekistondan qayta qurish va demokratiya e'lon qilinganidan keyin atigi o'n kishy hajga borgan bo'lsa, 1990 yili 355 kishi bordi. Mustaqillik arafasida bu raqam 1200 ga yetgan bo'lsa, istiqtol tavalludining birinchi yili bu raqam o'n baravardan ham oshib ketdi.²⁴

Ma'furaviy jihatdan shaxsnint butun hayot faoliyati va yashash maqsadi, orzu-umidlari ham Islom dinining ayutoqiy me'yorlari bilan belgilangan. Shariat talablariga to'la rioya qilishga qarab, shaxs harakatiga, xulq-atvoriga va odobiga jamoatchilik yoki ijtimoiy guruh tomonidan baho berilgan. Ayniqsa, mahalla yoki qishloq aholisining ma'naviy hayotini boshqarib turgan hamqishloqyaar yoki hammahallaning fikri katta kuchga ega bo'lgan. Odat tusiga kirgan jamoa guruhining fikri, hukmron diniy mafkuradan qat'i nazar, yozilmagan, ammo bajarilishi shart qonun-qoida hisoblangan. Ilgari kimki shu qonun-qoidani buzsa, u jamoatchilik tomonidan qattiq jazolangan yoki qishloq, yo mahalladan haydalgan.

¹ Дала ёзувлари. Булурғур . 2010 й

Odat va shariat me'yorlari o'zaro bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldirgan. Bu to'g'rida tarixiy-etnografik manbalarda, taniqdi o'zbek olimlari, shoir va yozuvchilari asarlarida, xalq og'zaki ijodida juda ko'p dalillar keltirilgan. Odat va shariat me'yorlarining o'zaro bog'liqpigi asrimiz boshlaridagi etnografik asarlarning birida shunday ta'riflanadi: «dinga odat deb qaralgan, unga rioya qilmaganlar jamoatchilik fikri bilan qoralangan. Sart uchun bu fikr xudo g'azabidan ham qo'rqinchli hisoblangan».

Ijtimoiy-ruhiy jihatdan jamoatchilik fikri Islom dini ta'siri ostida shakllangan va rivojlangan oddiy kundalik ong ta'sirida bo'lgan. Shuning uchun kishilarning xatti-xarakati, ishlari va xulq-atvori yomonlikka yo'nalsa, do'zaxda jazolanadigan gunoh deb qoralangan, yaxshilikka yo'nalgan ezgu xarakterga ega bo'lsa, savob hisoblangan va narigi dunyoda yuksak baholanib, jannatga yo'llanma bilan qadrlangan. Ammo shariat va jamoatchilik fikri gunoh bilan jinoyatni farqlaydi, ular Xudo yaratgan islom me'yorlariga, ya'ni Qur'on qoidalariga qarshi qaratilgan harakat deb hisoblangan. Masalan, ro'za tutmaslik yoki o'g'rilik, fohishalik yoki dahriylik, dindan qaytish yoki odamni o'ldirish musulmonchilikda ham gunoh, ham jinoyat deb qoralanib, bir xil jazolangan. Lekin odatga asoslangan jamoatchilik fikri, ba'zan shariatdan ham ustun turgan. Uning ta'sirida hatto islom aqidalariga zid bo'lgan ayrim marosim yoki rasm-rusumlar amalga oshirilgan. Masalan, Qur'onda farz bo'lmagan ba'zi oilaviy-maishiy urf-odatlar, ayniqsa, an'anaviy to'ylar jamoatchilik fikri ta'sirida juda ko'p sonli kishilarga mo'ljallangan tantanavor ravishda katta xarajatlar sarf qilinib o'tkazilgan va hozir ham o'tkazilmoqda. Elga, mahallaga katta osh berish islom dinida ko'rsatilmasada, qarz hisoblangan. O'tmish to'ylari to'g'risida o'tgan asrdagi rus etnografi I.S. Likoshin bunday deb yozadi: «Qadimdan odat tusiga kirgan oilaviy tantanalarni mahalliy aholi «to'y» bilan nishonlaydi, to'yda tanish-bilishlarga katta ziyofat va sovg'a (chopon)lar in'om qilinadi. To'y qilmaslik - uyat, umuman, tejamkor sart uyatga qolmaslik uchun qarzga botib, ba'zan xonavayron bo'lsa ham, o'sha odatga rioya qiladi. To'yga mahalla a'zolari, qo'shni mahallalardan butun shahar bilsin uchun bir necha kishidan iborat vakillar taklif etiladi. Katta qozonda osh

damlanadi, mehmonlarga capno uchun arzon choponlar xarid qilinadi va taklif qilinganlarning mavqeyi va boyligiga qarab taqsimlanadi». Muallif qayd qilganidek, oilaviy bayram ziyofati mahalladoshlari oldida o'z burchini ado etish xarakteriga ega.

Jamoatchilik fikri tomonidan qoralanmaslik uchun mahallaga osh bermaslik mumkin emas, aks holda ilgari oshga chaqirgan tanish-bilishlar va qo'shnilar to'y qiluvchini xasis deb hisoblaydi.²⁵

Insonning barcha maishiy va ma'naviy faoliyatini qamrab olgan islom mustamlaka davrida kapitalistik munosabatlar sharoitida ham jamiyat taraqqiyotiga katta ta'sir qilib kelgan. Ammo Samarqandda o'sha davrda, asosan, feodal-patriarxal munosabatlar hukm surgan, ligi tufayli, iqtisodiy va etnik aloqalar, madaniyat ha rivojlangan, shaxs qaramligi ancha kuchli bo'lganligi uchun milliy birlikka nisbatan diniy birlik ustun turgan. Yuqorida qayd qilinganidek, din ma'naviy va maishiy turmushda hukmron bo'lganligi uchun butun ijtimoiy va oilaviy-maishiy munosabatlarni boshqaruvchi huquq-axloq mexanizmi vazifasini bajarib kelgan, diniy, etnik birlik o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan. Shu sababli yosh milliy burjuaziya va uning mafkurasi feodal-patriarxal zamindan to'la ajralmagan holda hukmron islom mafkurasi ta'sirida o'z manfaatini din bayrog'i ostida himoya qilgan edi. XIX asrning 90 yillari Turkiston o'lkasi, Buxoro amirligi va Xiva xonligida jadidizm, panislomizm, panturkizm g'oyalari keng tarqala boshlaydi, bu g'oyalar mazkur ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot asosida yuzaga kelgan. Айнан шу жиҳатларни XX аср бошларида Самарқанд шаҳри ва марказий аҳоли манзилгоҳларида ҳам кузатиш мумкин эди. Самарқандда фаолият кўрсатган турли газета ва рўзномалар, маданий муассасалар фаолиятини таҳлил қилар эканмиз, юқоридаги фикрнинг тўғри эканлигига аин бўламиз.

Dastavval, bu g'oyalarni musulmon ruhoniylarining aqidaparast oqimi targ'ib qila boshlaydi. Bundan tashqari, o'sha davrda O'rta Osiyoda ko'plab paydo bo'lgan Turkiya targ'ibotchilari din arboblarning panohida panislomizm va

¹ Жабборов, И. Ўзбеклар . Т . «Шарк» . 2008. 178-бет.

panturkizm g'oyalarini har tomonlama kuchaytirib, mahalliy xalqlarni «kofirlar»ga, ya'ni ruslarga qarshi kurashga chaqirganlar. Bunday tashviqotchilarning bir qismi Turkiston o'lkasi va Buxoroga yuborilgan. Bu to'g'rida general-gubernator Duxovskiy ham podshoga axborot beradi. «Ma'lumotlarga ko'ra, - deb yozadi u, - turk emissarlari xalif foydasiga sadaqa to'plabgina qolmay, ba'zan g'azovot g'oyasini ham targ'ib qilmoqdalar... Bizning musulmonlar orasida hozir bizga eng zararli panislomizm g'oyalarining keng tarqalganligi va bizning ziyolilarning islom bilan mutlaqo notanish bo'lganligi turk emissarlarigina emas, bizning tatarlar ham shariatni bilmaydiganlarga har xil bema'ni, notanish yo'llar bilan matbaa orqali va boshqa tadbirlarni qo'llab, bizning hukumatga va bizning jamiyatga islomni g'ayridindagilarga qarshi, umum-insoniy taraqqiyot g'oyalariga bemurosa ekanligini isbot qilish tasavvuri xavfli». Duxovskiy ta'rificha, ayrim mahalliy Toshkent kitobfurushlari panislomizm va panturkizm g'oyalarini hamda Turkiya qudratini ko'kka ko'tarib maqtaydigan adabiyotlarni yashirin ravishda tarqatganlar. Bunday g'oyalarni tashviqot qiligvda, ayniqsa, so'fiy mazhab vakillari - shayxlar, eshonlar va ularning ko'p sonli muridlari faoliyat ko'rsatganlar.

So'fizm shoirlar va islom nazariyotchilari yaratgan ko'plab Aqsona va hikoyalarda, doston va ertaklarda dunyoviy lazatlardan kechgan, ammo kuchli, irodali va xudoga yaqinligi tufayli qudratli piru avliyolar, saxiy darveshu devonalar kuypangan. Bunday asarlarda piriga sadoqatli shaxslar doimo baxtga erishadi, murod-maqsadiga yetadi, uning duosi bilan turli g'oyalarni va qiyinchiliklarni yengib chiqadi, bo'ysunmay o'zboshimchalik qilgan esa, aksincha, sharmandalarcha halok bo'ladi, deyiladi. Badiiy tasvirlangan mazkur obrazlar yo sa)foda tashnalikda o'layotgan musavvirni qutqaradi, yo dushmanlardan shaharni, yoki mamlakatni ozod qiladi, yo adolatsiz podshoni, yoki yolg'onchi sudxo'rni qattiq jazolaydi. Bunday ijod mahsulotlari, shubhasiz, mehnatkash ommani ijtimoiy zulm sharoitida ancha ovutadigan muhim vosita bo'lgan.²⁶

Diniy adabiyotni, musulmon afsonalari va rivoyatlarini, avliyolar to'g'risidagi

¹ Ko'rsatilgan asar. 179-bet.

turli to'qimalarni xalq orasida tashviqot qilishni o'ziga kasb qilib olgan ma'ruzachilar - maddohdar merosiy kasb egasi bo'lgan. Islom tashviqotchilaridan Qur'onni yoddan biladigan qorilar (odatda, ko'zi ojiz kishilardan) ham maxsus maktablarda - qorixonalarda ishlab ta'lim-tarbiya olganlar. Ular qoriboshi rahbarligida Qur'on suralarini (ayrimlari butun Qur'onni) yodlab, qiroat bilan o'qish san'atini egallab, turli diniy oilaviy-maishiy marosimlarga, janozaga va boshqa oilaviy urf-odatlariga taklif qilinganlar.

Keng omma orasida eshonlarga sig'inish shunchalik kuchli bo'lganki, ular o'lgandan keyin avliyo darajasiga ko'tarilib, obrazlari turli afsona, hikoya va rivoyatlarga kirgan, so'fiy shoirlar ijodida kuylangan, ularning ustav (risola)lariga kirgan, «Past tabaqadagi sartlar, ayniqsa hunarmandlar,- deb yozadi N. Malliskiy, - o'z kasblarining «pirilari» deb musulmon olamida qachonlardir dunyodan o'tgan «mashhur» avliyolarni tilga oladilar. Sartlar orasida, umuman, axloqiy jihatdan bosh bo'ladigan ayrim chinakam avliyo) karomatli donishmand eshonlar bor, lekin ko'pchilik eshonlar murid qalbli emas, balki pul ovlaydigan yolg'onchi va munofiq shaxslardan iborat, degan tushuncha tarqalgan», Bu fikrni tasdiqtaydigan namunalar xalq ijodida ham o'z ifodasini topgan.

Kasal davolaydigan duoxonlik qiluvchi eshonlar maxsus toifani tashkil qilgan. Ular, asosan, oilaviy turmush bilan aloqada bo'lib, oilaviy-maishiy munosabatlarga ta'sir qilgan, ayrimlari ta'magirlik, axloqsizlik, nojo'ya xatti-harakatlari bilan yomon nom qoldirgan, Bedil, Mashrab, Muqimiy, Munis Xorazmiy, Avaz O'tar va boshqa demokrat yozuvchi va shoirlarning asarlarida mutaassib, chirik, eski ijtimoiy va maishiy hayotning barcha illatlari, feodal jamiyatning j malaylari hisoblangan xurofotchi so'fiy eshonlarning kir. ' dikorlari va nayranglari fosh etiladi, qattiq tanqid qilinadi.

Aholining oilaviy- maishiy munosabatlariga ko'p sonli avliyolar va muqaddas joylar hamda ularda xizmat qiluvchi maxsus ruhoniylar, shayxlar katta ta'sir o'tkazgan. Ko'pchilik shayxlar o'zlarini ushbu mozorda dafn qilingan avliyo shaxsning avlodi deb hisoblagan. Har bir muqaddas joy muayyan kasalliklarni davolaydigan avliyo sifatida «mutaxassislashgan», ya'ni u yerlarda muayyan

kasalliklarni «davolaydigan» maxsus avliyolar bo'lgan. Mehnatkash xalq nodonligi tufayli turli ijtimoiy zulm va son-sanoqsiz ofat keltirayotgan har xil kasalliklarning sababini bilmasligidan soxta xurofiy davolanish usullariga murojaat qilishga majbur bo'lgan. Ushbu mozor yoki muqaddas joy to'g'risidagi afsona va rivoyatlar muhim ma'naviy qullik vositasi sifatida ruhoniylar va hokimlar tomonidan to'qilib, keng tarqatilgan. Xatto hozirgi kunda ham muqaddas joylarga soxta xurofiy davolanish usullariga ishonadigan kihiilar Samarqan viloyatining deyarli barqa tumanlarida uchraa turadi.

Shunday qilib, oktyabr to'ntarishidan oldin Islom dini mahalliy aholi ijtimoiy va oilaviy hayotining butun hujayralariga singib ketib, bir tomondan, eski qoloq turmush va oilaviy-maishiy munosabatlarning barham topishiga to'sqinlik qilsa, ikkinchi tomondan, tafakkurda mutaassiblik, turmush tarzida konservatizm va biqqlikni singdirib, hayotda zamonaviy, yangicha, ba'zan foydali narsalarning tarqalishiga va yangiliklarni o'zlashtirishga qarshi chiqqan. Asrlar davomida o'rnatilgan diniy qoida va rasm-rusumlardan har qanday chekinish jinoyat deb hisoblagan islom faqat maishiy turmush va madaniyatnigina emas, hatto iqtisodiy taraqqiyotni ham ma'lum darajada cheklab qo'ygan.

Shuning uchuk milliy tiklanish vakillari - jadidlar eski maktabni isloh qilish va boshqa ayrim yangilikyaar kiritish tashabbusi bilan chiqa boshlagan. Bunday intilishlar faqatgina o'qitish usuliga taallukdi bo'lsa ham, asl mohiyati bilan mahalliy aholining madaniyat va turmush sohasidagi o'zgarishlarga muhtoj ekanligini ifodalaydigan tadbirlar edi. Turkiston jadidyaarining yetakchisi M. Behbudiy bunday deb yozgan edi: «Bizlar hozirgi madaniyat asosida maktablar, ustaxonalarni va boshqa eski turmush bilan bog'liq sohalarni isloh qilishimiz zarur». Uning fikricha, maorif sohasidagi islohot feodal-maishiy turmushni tubdan o'zgartirib, mahalliy burjuaziyaning «normal» o'sishiga imkon yaratib beradi. Ju1illiy burjuaziya yangi sharoitda xalq ommasining ma'rifatga intilishini sezib, g'oyaviy ta'sir vositalarini o'z yo'liga olish maqsadida o'zlarini yangilik tarafdori qilib osatishga intilgan. Milliy tiklanish mafkurachilari - jadidlar o'z gazetasini chiqara boshlagach, u orqali fan va islomni yaqinlashtirishga intilib, panturkizm va

panislomizm g'oyalarini targ'ib qilganlar, xalkdi chorizmga qarshi chiqishdan ogohdantirganlar. Birinchi rus inqilobining tarqalishidan qo'rqqan jadidlar rus imperialistik burjuaziyasi bilan birlashish va chorizm bilan ittifoq tuzish yo'llarini axtara boshlagan edi.

Самарқандлик етакчи жаҳид намоёнҳаси М. Беҳбудий ислом ақидаларининг иқтисодий ва мафкуравий заминида буржуазия партиясини ташкил қилиш ташаббуси билан чиқади. Жаҳидлар пантуркизм ва панисломизм шiorлари остида бутун musulmonlarni бirlashtiruvchi yagona musulmon партиyasi chorizmga ва rus imperialistik burjuaziyasiga qarshi kurashish uchun emas, balki mehnatkashlar orasida marksistik mafkuraning tarqalishiga qarshi tashkil etishni maqsad qilganlar. Bunday birinchi siyosiy tashkilot 1917 yili mart oyida Toshkentda «Sho'roi islomiya» nomi bilan paydo bo'lgan va uning tevaragida mahalliy feodal-klerikal va burjuaziya elementlari birlashgan.

Temir yo'l transportining paydo bo'lishi, tosh yo'l va obodonlashgan shaharchalarning qurilishi, qishloq xo'jaligida ba'zi rasional usullar va yangi ekinlarning joriy qilinishi, dehqonchilikda va hunarmandchilikda ancha takomillashgan qurollarni ishlatish kabi o'zgarishlar mahalliy xalqyaarning xo'jalik-madaniy rivojiga va maishiy turmush tarziga asta-sekin ijobiy ta'sir ko'rsata boshlagan. Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Jizzax kabi shaharlarda badavlat xonadon vakillari hashamatli, yog'och polli va ko'chaga qaratilgan rom oynali uylar qura boshlagan. Ayrim xonadonlarda yog' chiroq o'rniga lampalar, sandal o'rniga gollandcha cho'yan pechkalar, samovar, tikuv mashinasi, yevropacha idish-tovoqlar, karavot, stol va stullar, zavod va fabrikalarda ishlangan qaychi, igna, temir sirli idishlar, gazlama va boshqa buyumlar paydo bo'lgan. Mahalliy aholining kiyim-kechagida ham ancha o'zgarishlar ro'y bergan: kamzul va tik yoqali ko'ylaklar, beshmet va rezina kalishlar, echki charmli mahsi o'rniga fabrika charmidan tikilgan lakli etiklar, dastavval boy tabaqalar, keyin boshqalar tomonidan qabul qilingan.

Uzgarishlar faqat moddiy-madaniy sohadagina emas, xalq ommasining ongida ham ro'y bera boshlagan. Ilg'or rus madaniyati mahalliy aholining oilaviy

munosabatlariga ham samarali ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, rus ayol shifokorlarining tub aholi bilan yaqindan aloqada bo'lib, ularning ichki hayotiga kirib, musulmon oilalarini yangi turmushga qadam tashlashga yo'l ochib berganligi diqqatga sazovor.

Xurofot to'riga chulg'angan bemorlar har xil kasalliklarni davolashga «ixtisoslashgan» turli «muqaddas» joylar, avliyo-anbiyolarga, asosan xurofiy yo'l bilan davolaydigan tabib, folbin, romchi, baxshi, shayx va mullalarga murojaat qilishga majbur bo'lganlar. Bunday «shifokorlar» fol ochib, «arvohlar» va «parilar» bilan «so'zlashib» turli tumor va duolar yozib, bemorni har xil avliyolarga ro'para qilib, ba'zan zikr tushib davolaganlar. Avliyo «urgan» bemor kasalliqsan qutulishi uchun o'sha avliyoning arvohini xursand qilish maqsadida xudoyi atashi va diniy marosimlarga rioya qilishi zarur deb tushuntirilgan.

O'limning ko'pligi aholining nodonligini kuchaytirgan. Xalq shifo axtarib xurofiy va ibtidoiy usulda davolaydigan tabiblarga, baxshi, folbin, duoxon, eshon-mullalarga murojaat qilishga majbur bo'lgan. Ular sehrgarlik yo'li bilan ishlatadigan ko'chiriq, kinna, rom ochish, amal, dam solish, azayimxonlik, tumor taqish, avliyo-anbiyolar tuprog'i, «muqaddas» suvlar kabi davolash usullari keng tarqalgan ijtimoiy kasalliklarni tugata olmas, o'lim sonini kamaytirmas edi, albatta.

Urushdan keyingi yillarda sog'liqni saqyaash masalasi birinchi darajali vazifaga aylandi. Hozir mustaqil O'zbekistonda nafaqat tibbiyot sohasida, balki ma'naviy madaniyatning barcha sohalarida yangi mafkura yaratish maqsadida jiddiy harakatlar boshlanib, uning bosh g'oyasi inson taqdiri, farovon hayoti bilan bog'liqdir.

O'tmishda va hozir ham ma'naviy madaniyatimizning tarkibiy qismi hisoblangan islom dinimizning, albatta, xulq-atvorimizni, an'anaviy turmush tarzimizni mustahkamlashda xizmati katta. Ammo katta siyosat, davlat ishlarida zamonaviy xalqaro munosabatlarni samarali boshqarishda umuminsoniy, dunyoviy qonun-qoidalarga rioya qilish davr talabidir. Shuning uchun yangi Konstitusiyamizning 31- moddasida «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hyech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan

singdirishga yo'l qo'yilmaydi» deb yozilishi juda o'rinli va zamonaviy ruhdagi qoidadir.

2.3. "Avesto" da atrof-muxit bilan bog'liq qarashlar.

Insoniyat ma'naviy kjsalishidagi eng buyuk cho'qqilaridan biri tabiat va odamzod hayotidagi o'zaro uygushshk va mutanosiblik mavjudligini idrok etish hisoblanadi. Tun ortidan kunning kelishi, daryolarning yuqoridan quyiga oqishi, issiq bilan sovuq, achchiq bilan chuchuk, yaxshi bilan yomonning farqiga borish odamning inson bo'lib shakllanishida o'ta muhim ahamiyat kasb etgan. Buni qadim zamonlarda yashab o'tgan ajdodlarimiz tarixi, dini, san'ati, tabobati to'la-to'kis isbotlab turibdi. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi yozma yodgorligi - "Avesto" kitobi qismlari bilan tanishish chog'ida ming yillar burun hayot kechirgan odamlar dunyoqarashi, tabiat va jamiyatga munosabati nechog'lik murakkab ravishda shakllanganiga guvoh bo'lamiz.²⁷

«Avesto» kitobi uzoq ajdodlar ijtimoiy turmushi, ma'naviy hayeti to'g'risida noyob ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan tarixiy yozma manbadir. «Avesto» so'zining o'zagi «sto» - bo'lib, «o'rnatilgan, muqarrar qilingan qonun-qoidalar, hayotning asosiy yo'riqnomasi» demaqdir. Bu kitob miloddan avvalgi II ming yillik va I ming yillik birinchi choragida, bir necha yuz yillar mobaynida shakllangan.

"Avesto" kitobi 21 qism (nask)dan iborat bo'lgan. Shundan to'rt qismi hozirgacha yetib kelgan: "Videvdot" ("Vandidod"), "Yasna", "Vispirad», "Yasht" nasklari. Ko'p qismi yo'qo-lib ketganiga qaramay, saqlangan nasklarning o'ziyoq "Avesto"ning qomusiy ulug'vorligi-, ni, tarixiy manba sifatida yuksak qimmatini, ma'naviy umumbashariy xususiyatlarini to'la namoyish etadi. "Yasht" kitobi (Xurmuzd yasht)ning ezgulik tangrisi Axura Mazdaga alqov qismida ngunday g'oya ilgari surilgan: "Ezgu o'y, ezgu so'z va ezgu savob ishlar bilan ezgu o'y, ezgu so'z va savob ishni alqayman. Uzimni bori ezgu o'ylarga, ezgu so'zlar (aytish)ga, yaxshilik ishlar amaliga baxshida etaman, barcha yomon o'ylardan, yomon so'zu yovuz ishlardan yuz o'giraman" .

¹ Исхоков . Б . «Авесто» да атроф-муҳит билан боғлиқ қарашлар .. Самарқанд-2010. 92-бет.

Ibtidoiy diniy tasavvurlardan biri animizmga binoan, o'lganlar u dunyoda yashashda davom etadi, ularning ruhlari esa o'z avlodlari va qavmlariga yordam beradi, deb tushunilgan. Ruhlar "Avesto"da "fravashi" sifatida tilga olingan. Fravashi - tavalludga qadar va o'limdan keyin ham yashaguvchi Qalb, madadkor farishtalar deb hisoblangan. Yana bir jihati shundaki, fravashilar insonni o'ragan barcha tabiat hodisalariga, jumladan, tog'lar, daryolar, ko'llar, va boshqalarga ham tegishli bo'ladilar, deb ishonilgan.

Barcha yaxshiliklar: suvlar, giyohlar, ashavanlar fravashilarni olqishlamoq va hamd qilmoq istaymiz". Fravashilar inson, jamiyat, tabiat, uy, qishloq, el-yurt, mamlakatni balo-qazodan asrovchi najotkor kuch sifatida anglangan. "Avesto"ning Yasna qismi, da bu xususda shunday misralar mavjud: Fravashilar "osmonni asrab-avayladilar, qo'riqladilar, suvni asrab-avayladilar, jonivorlarni asrab-avayladilar..."

Zardushtiylar dunyoqarashi bilan bog'liq dev", "alvasti", "ajina", "ajdaho" ("Avesto"-da "Aji dahoka"), parilar hanuzgacha o'zining dastlabki ma'nolarini ifodalaydi. Devga qarshi qalqon sifatida pichoq va nonni chaqaloq boshiga qo'yish ayrim joylarda hozirga qadar saqlanib qolgan. Ba'zi qishloqlarda to'zg'igan shamol quyni (girdob) hozir ham "ajina shamol" sifatida idrok etiladi. Zardushtiylar zamonidan hozirgacha davom etayotgan tasavvurga ko'ra, jinlar, asosan, mozorlarda, yong'oq va jiyda daraxti ostida ko'proq bo'ladi. Shuning uchun, yong'oq va jiyda daraxti tagida yotish qadimdan bexosiyat hisoblangan.

"Ozodalikka intilish, diniy marosimlarni o'tkazishda ishlatilgan idishlarni yuvib, saranjom-sarishta qilish ham zarur edi. Chunki ozodalik, tozalik, turli-tuman ifloslik va yomonliklardan kishini asraydi, deb tushunilgan. Bunday odatlarning hozir ham o'zgacha tasavvurlar qanotida bizgacha yetib kelganini ko'ramiz. Ona va momolarimiz kechqurun ishlatilgan qozon va idish-tovoqlarni yuvib-tozalab, har qanday sharoitda ham ularni ertalabga yuvuqsiz qoldirmaydilar. Bu yuvuqsiz idishlarni nihoyatda xosiyatsiz narsa deb biladilar".

Ajdodlarimiz olov yongan o'choqqa qalampir, non, ovqat qoldiqlari tashlash, turli chikindilarni yoqish yoki o'choqdan chiqqan kulni duch kelgan joyga to'kish, makruh narsalarni o'choq olovida kuydirishni gunohi azim hisoblaganlar.

Agar olov kuli bilan axlat bir joyga tashlansa, ushbu xonadonning to'y va aza marosimlari bir-biriga qo'shilib ketadi, deb o'ylangan. Motam marosimlarida esa olovni bulgamaslik uchun uch kun mobaynida ushbu xonadon o'chog'ida o't yoqib taom tayyorlanmagan. Bundan tashqari, nikoh to'yida kelin-kuyovni ins-jins, balo-qazodan poklash maqsadida olov atrofida aylantirish odati ham bizga ajdodlardan meros.

"Soch va tirnoklarga bo'lgan pokiza munosabat ham Ahura Mazdaga yoqadigan xususiyat sanalgan. Bu hatto hozirgi zamon kishilarida ham uchrab turadi: sartoroshxonalarda soch tolalari tezda oyoq ostidan supurib olinadi; tirnoqlar duch kelgan joyga tashlanmaydi, ular ham yig'ilib toza joyga qo'yiladi; bolaning tishi tushsa uni "suyak tishingni ol temir tishimni ber" deb tomga otib yuborish odatimiz bor".²⁸

Soch va tirnoqqa nisbatan alohida e'tibor berish hollari bugungi kungacha saqlangan. Farg'ona vodiysidagi tuman va qishloklarda olingan soch yoki tirnoq o'tga, suvga tashlanmaydi. Chunki, sochni o'tga, suvga, oyoq ostiga tashlash gunoh hisoblanadi. Shu bois, soch yoki tirnoq devorlar kovagiga qo'yiladi yoki mevali daraxt tagiga ko'miladi. Bizningcha, bu odat zardushtiylikdagi tanadan ajralgan har bir narsa murdor hisoblanishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

"Hovli eshigi oldiga yoki ko'chaga supurindi to'plab qo'ygan farrosh yoki uy bekasi 25 darra kaltaklash bilan jazolangan. Hovuz, chashma va ariq bo'yiga mevali daraxt o'tqazil-magan. Chunki bir dona meva suvga tushib chirisa, "yuz ming mikroba" tarqatar-kan". Shuningdek, "Avesto"da xonaki hayvonlar: qo'y, echki, sigir, eshak, ot, tuyalarni sakdash hamda parvarish qilish xususida ham foydali maslahatlar mavjud. Bir "sagi obi" - suv itini o'ldirib, uning murdasining chirib, mikroba tarqalishiga sabab bo'lgan kishi bir askarga ot, dubulg'a, sovut, qalqon, etik, kamon, nayza, gurzi, palaxmon olib berishdek jarima to'lashga majbur etilgan. Inson yashayotgan xonadagi obrezda yuvinishi va cho'milishi qat'iy man etilgan. Chunki, yuvinish jarayonida kir va qo'lansa hid yana buglanib, nafas yo'li orqali tanaga kirib, og'ir kasalliklarga sabab bo'lishi mumkinligini

¹ Авесто . Яшт китоби. А. Исоков таржимаси. Т. «Шарк» 2001 . 363-бет.

ajdodlarimiz teran anglaganlar.

"Isiriqsan kasalliklarning oldini olish maqsadida keng foydalanganlar. Xususan, uyda biror bemor bo'lsa, chaqaloqni birinchi marotaba beshikka belayotganda, kelin tushir-ganda, xonadonga begona odam kelib ketgan paytlarda ehtiyot chorasi sifatida isiriq tuta-tilgan. Xalq tabobatida ham isiriq keng qo'llanilgan" .

"Avesto"da atrof-muhit tozaligini asrash va xastaliklarning oldini olishning turli vositalari xususida adabiyotshunos olim H. Homidiy tadqiqotlarida batafsil yoritilgan . Etnolog olim A. Ashirov tadqiqotlarida esa, zardushtiylik dini bilan bog'liq an'ana va marosimlar tahlil qilingan.

Ajdodlardan meros, butun dunyo olimlari tomonidan o'rganilayotgan "Avesto"da yaylov-lar, butazorlarni yakson qilmaslik, ekinzor, bog'-rog', mevali daraxtlarga zarar yetkazmas-lik, atrof-muhit pokizaligini asrash, buloq, quduq, hovuz, ariqlar tozaligiga alohida e'tibor qaratish lozimligi xususida ham ibratli fikr-mulohazalar mavjud. Masalan, hovuz yoki ariq bo'yida mol boqqan yoki o'sha epra otini bog'lagan har qanday shaxs, daraxtning bir shoxini sindirgan ham, nopok ko'zani hovuzga solgan ham 25 qamchi kaltaklanish bilan jazolangan. Atrof-muhitni, ko'cha-ko'yni, butazor, o'tloqlar yerni, suvni iflos qilgan va uni asrash qoidalarini buzgan shaxslar "400 qamchi urish jazosiga" xukm qilingan .

Hanuzgacha urf-odatlarimizda saqlanib kelayotgan muqaddas aqidalar: "Suvni bulg'ama", "Suvga tupurma", "Jonivorlarga ozor berma", "Olov o'ynama, tunda bosinqiraysan", "Harom idishni olov bilan tozala" kabi o'git va hikmatlar bizga "Avesto"dan qolgan qadimiy merosdir.

Xullas, xonadon pokizaligi, atrof-muhit ozodaligi, o'simlik va hayvonot dunyosini saqlash xususidagi g'oyalar hamon dolzarb ahamiyatga ega. Demak, "Avesto"da ilgari suril-gan atrof-muhit bilan bog'liq qarashlarni har tomonlama o'rganish ekologik madaniyatni tarixiy asoslarini yoritishga xizmat qiladi.

O'ZBEKLARDA OT BILAN BOG'LIQ XALQ udumlari .

Dunyodagi boshqa xalqlar qatori o'zbek xalqining ham madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharqning ma'naviy o'choqlaridan biri bo'lib xizmat qilgan. O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek, bu qadimiy tuproqdan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olimu ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan . O'zbek xalqining ijtimoiy, oilaviy-maishiy va shaxsiy turmushida diniy tasavvurlar muhim o'rinni egallab kelgan. Din ibtidoiy jamoa tuzumidan hozirgacha xalqimiz ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi sifatida jamiyatning, oila va shaxs hayotining barcha hujayralarigacha singib ketgan. Uning tarixiy ildizi eng qadimgi tosh davriga borib taqaladi va butun keyingi tarixiy taraqqiyot jarayonida turli shaklda namoyon bo'lib kelgan.

Qadimdan dunyo xalqlari diniy qarashlarida hayvonlarning roli g'oyatda rang-barang bo'lgan. Hayvonlar odamlar tasavvurida. xudoning yo'ldoshi yoki yordamchisi hisoblangan. Masalan, qadimgi yunonlar dinida ovchilik ilohi Artemida ohu hamrohligida tasvirlangan, ko'rqinchli it Kerber esa do'zax eshigini qo'riqlab turgan. Sinfy jamiyatga bo'linmagan xalqlarda esa odamlarning kelib chiqishini muayyan hayvoy, quiq baliq va hattoki hasharot bilan bog'lashgan. Jumladan, kaliforniyalik kayot kabilasiga mansub hindular (Preriya bo'rilar) ajdodlari bo'ri bo'lganligiga ishonishgan. Bunday jonivorlarga ehtirom ko'rsatilib, ularni muqaddas deb bilishgan.

O'zbek xalqi an'anaviy turmush tarzidagi qadimiy diniy e'tiqod izlarini tarixiy-etnologik nuqtai nazardan tadqiq etish o'ta dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Xalqimiz an'anaviy turmush tarzidagi qadimiy diniy e'tiqodlar bilan . bog'liq udumlar va urf-odatlarini tahlil etish mazkur mintaqada yashovchi etnoslarning tashqi olam, koinot, tabiat to'g'risidagi tasavvurlarining eng qadimgi qatlamlarini aniqlashga, o'zbekparning kadimgi ajdodlari ilk diniy-e'tiqodiy qarashlari, mafkurasi borasida mushohada yuritish imkonini beradi. Bugungi

kunda qadimiy diniy e'tiqodlarning asl ko'rinishi to'la saqlanib qolmagan bo'lsa-da, ular islomiy qarashlar bilan o'zaro qorishgan holda xalqimiz turmush tarzida saqlanib qolgan.²⁹

O'rta Osiyo xalqlari, jumladan o'zbeklarda ham ot, tuya, qo'chqor, ho'kiz kabi uy hayvonlariga nisbatan totemistik e'tiqod nihoyatda kuchli bo'lgan. Qadimgi turkiylar ilohiy mo'jiza bo'lmish otga gapiradigan, ucha oladigan aklli mahluq sifatida qaraganlar. Turmushda muhim o'rin tutgan ot muqaddaslashtirilib, topinish (kult) darajasiga ko'tarilgan. Agar hozirgi kungacha arxeologik va yozma manbalarga asoslangan holda qadimda va o'rta asrlarda xalqlar turmushida otning xo'jalikdagi va harbiy sohadagi funksiyasi yetarli darajada yoritilgan bo'lsa-da, ammo uning xalq e'tiqodi va diniy marosimlardagi roli kam o'rganilgan.

O'rta Osiyo xududida yashagan ko'chmanchi va yarim o'troq aholining diniy-mifologik qarashlarida ot timsoli o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan. O'zbeklarda ham ot topinchi bilan bog'liq o'ziga xos e'tiqodlar va udumlar mavjud bo'lgan. Ot topinchiga bo'lgan lgunosabat O'zbekiston xududida turli darajada bo'lgan. Masalan, asosan chorvador o'zbeklar diniy e'tiqod va marosimlarida ot yetakchi o'rinda turgan. Xorazmda esa ot topinchiga munosabat ikkinchi darajali bo'lib, ularning ayrim ko'rinishlarini urf-odatlarida hozirgacha uchratish mumkin.

Tarixiy adabiyotlarda, diniy qarashlarda otning roli 2 yo'nalishda ko'rib chiqiladi: ot -topinchining shakllari va manbalari shakllar haqida gapirishdan oldin "kult" -"topinch" (diniy) tushunchasining mazmunini aniqlash lozim. Falsafa va dinshunoslikka oid adabiyotlarda diniy topinch sifatida "qandaydir bir predmetni yoki ilohiy mavjudotni diniy hurmatlash, dinning marosimiy tarafi" tushuniladi. Shunga ko'ra, topinch tushunchasini keng va tor ma'noda farqlashadi. Kult haqida tor ma'noda gapiradigan bo'lsak, "faqat ilohiy mavjudotlarga ishonish bilan bog'liq hamda ularning rahm-shafqatiga yo'naltirilgan diniy marosimlar" nazarda tutilsa, keng ma'noda esa kult o'z ichiga "diniygmagik tasavvurlar bilan bog'liq barcha harakat ko'rinishlari: turli marosimlar, qurbonlik, sig'inish, ibodat qilish, sirli ibodatlar, misteriyalar (diniy mavzudagi dramalar) va shunga taalluqli

¹ Каримов . И. А . Тарихий хотирасиз келажак йук. Т. «Ўзбекистон» 1999. 3-бет.

buyumlar"ni oladi .Dinshunos olim D.M. Ugrinovich kultni "kundalik amaliy diniy hayot" doirasi sifatida tavsiflaydi . Yana bir olim I.N. Yablokov, dinning amaliy tarafi, avalambor, - kultda ifodalanadi, deb ta'kidlaydi va "kult" tushunchasini "faoliyat" darajasi yordamida ma'nosini ochib berishni taklif etadi. Kultning umumiy tavsifi I.N. Yablokovda quyidagichadir: "Kult - bu diniy faoliyat ko'rinishi" bo'lib, qator xususiyatlarni o'z ichiga oladi: "1) faoliyat mazmuni; 2) faoliyat obyekti; 3) faoliyat subyekti; 4) faoliyat vositasi; 5) vositalarni qo'llash usuli; 6) faoliyat natijasi". Muallifning fikricha, kult faoliyatida qayd qilingan elementlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash ushbu tushunchaning asl mazmunini ham aniqlash imkonini beradi .

Shunday qilib, kultning barcha ta'riflarida uning amaliy tarafi kuzatiladi. Kult diniy tasavvurlarda ilohiy yoki g'ayritabiiy xususiyatga ega bo'lgan mavjudot orqali aniqlanadi- Demaq,' "ot topinchi" haQida gapiradigan bo'lsak, ot - bu kult obyekti " ekanligini anglash lozim. Akc holda gap faqat otning qanday byr kultga xizmat qilishi haqida ketishi mumkin. Ot topinchi bilan bog'liq e'tiqodlar va tasavvurlarni dafn , marosimlarida ham yaqqol kuzatish mumkin .³⁰

O'zbekistonning janubiy viloyatlarida dafn marosimida ot topinchi bilan bog'liq quyidagi udum mavjud bo'lgan. Qashqadaryo viloyatida marhumning otini o'rta qayelishgan va bir kishi uni ushlab turgan. Oti bo'lmasa bir tomonga yuganni, ikkinchi tomonga bug'doy solingan idishni qo'yishgan .Surxondaryo viloyatida ot egasi vafot etsa, u uchun qimmatli sanalgan otni marhum vafot etgan xona eshigidan qaratishgan va Otni marhumga kafan tikkan mullaga taqdim etishgan.

Laqaylar marxum dafn etilgandan so'ng, uning oti egarlangan holda uy oldida - ochiq joyda bog'lab qo'yilgan. Egarga marhumning barcha kiyimlari tashlangan (tikilmaganlari-ni ham). Agar marhum uylanmagan bo'lsa, kelinga tayyorlangan sep ham tashlangai. Sepning bir qismi kelinnikiga jo'natilgan bo'lsa, ushbu

¹ Турдумуродов Я.А. Узбекларда «От топирчи» билан боглик халк удумлари ва карашлари. 2010-йилги ёш олимлар конференцияси материаллари. Самарканд-2010. 32-бет .

marosim uchun qaytarib kelingan. Marhumning yaqinlari ot atrofini aylanib yig'lashgan. Yig'idan so'ng marhumning barcha kiyimlari va buyumlari yig'ilganlarga tarqatilgan. Ilgari erkak kishi jang paytida halok bo'lsa va murdasi topilmasa, marhumning yaqinlari uning oti atrofida aza tutish marosimini o'tkazishgan. Marhumning oti bo'lmasa yoki u ham o'ldirilgan, bedarak yo'qolgan bo'lsa, marhumning oilasi otni qarindoshlaridan olib turgan.

Farg'ona vodiysida ham yaqin o'tmishda o'ziga to'q kishi olamdan o'tganida onasi, xotini, singlisi va bir qator qarindoshlari uning otini tuzab, marhumning kiyimlarini ot ustiga tashlab, atrofini aylanib, marhum amalga oshirgan ezgu ishlarni eslab yig'laganlar. Bu marosim otga "davra solish" deb atalgan. Marosim yakunida otning dumi kesilib, o'z ixtiyoriga qo'yib yuborilgan va bu otni hyech kim minmagan. Kesilgan dum esa ot egasining marhumligini anglatgan.³¹

O'tmishda bir oilada birdaniga bir necha kishi vafot etsa, bu holat xalq orasida "nafsi chaynagan" deb yuritilgan. O'limning oldini olish uchun o'likning bosh tomonidan qabr ustidan ot irg'itib o'tishgan yoki bosh tomoniga ikkita xoda qoqib qo'yishgan. Qozoqlar odatiga ko'ra, uygacha otda chopib kelish mumkin bo'lmagan. Chunki bu tarbiasizlik belgisi hisoblangan. Faqat vafot etgan kishining uyiga otni joni boricha choptirib kelish mumkin bo'lgan. O'zbeklar va umuman O'rta Osiyo xalqlari ot topinchi bilan bog'liq o'ziga xos dafn marosimlarini o'tkazishgan. Masalan, qozoklar va qirg'izlarda marhum dafn etilgandan so'ng uni xotirlash maqsadida bir necha bor otda poyga uyushtirilgan. Marhum ot dupurlarini eshitsin deb poyga imkon boricha qabristonga yaqin joyda o'tkazilgan.

Dafn marosimlaridagi ot topinchi bilan bog'liq e'tiqodlar qadimda marxumlarni oti va unga dahldor narsalari bilan birga dafn etish marosimining transformasiyaga uchragan ko'rinishi hisoblanadi. Qadimgi turkiy xalqlar ikki dunyoni ham otsiz tasavvur eta olmaganlar. Ularda jangchi vafot etgach, udumga ko'ra, sevimli otini egar-jabduqlari bilan egasining yoniga izzat-hurmat ila dafn etilgan. Agar marhumning qarindoshlari ot ko'mishga qurbi yetmasa, unda ot egar-

¹ Ko'rsatilgan asar. 93-bet.

jabdug'i, anjomlari ko'milgan .

Aytishlaricha, ot o'zi turgan joydan yetti uyni "yovuz kuchlar"dan qo'riqlar ekan. Tunda saman otni minib, dubulg'a dastali qamchini olib yurgan kishiga hych qanday ins-jinslar ta'sir qilmas ekan (Dala yozuvlari, 2004).Ilgari homilador ayollarga ins-jinslar ta'sir qilmasin va eson-omon ko'zi yorishsin, degan maqsadda uning oldiga otni bog'lab qo'yishgan (Dala yozuvlari, 2004a). Axborotchilarning malumotlariga ko'ra, tun yarmida otning oldiga bormagan ma'qul. Xalq afsonalarida ot bir yilda bir marta kavsh qaytarib, ogzidan olov purkashi haqidagi fikrlar keltirilgan. Buni ko'rgan inson qo'rqlasa, boy-badavlat bo'ladi, agar qo'rqlasa shu zahoti tilsiz bo'lib qolishi va hatto jon berishi ham mumkin ekan .

"Ko'z"dan va yovuz kuchlardan himoya qilish maqsadida otning bosh suyagini darvoza tepasiga, ekin maydonlari o'rtasiga ilib qo'yish odati hozirgacha saqlanib qolgan. Ot nihoyatda sezgir jonivor .hisoblanadi.Iirik uy hayvonlari kabi ot ham egiz tug'sa, albatta, bittasini eshonga yoki boshqa . birovga berishadi. Xalq tasavvurdariga ko'ra bunday hol baxtsizlik belgisi hisoblanadi. Iirik uy. hayvonlarida egizak tug'ilishini qandaydir g'ayritabiyy yovuz kuch sifatida qarashadi. Shuning uchun ham bu hol hayotda kamdan-kam uchragan. Bu qarash bevosita qadimda keng tarqalgan egizaklar oldidagi qo'rquv sarqitlari hisoblanadi (Argshbayev, 1971. S. 198).

Otni baraka ramzi sifatida ham bilishgan. Sevimli yoki o'zi uchun qimmatli bo'lgan otni sotishga to'g'ri kelsa, uning yolidan to'rt tukini olib yashirib qo'yishgan. Otni sotganda yugani berilmagan, faqat chirgisi berilgan, xolos. Bu holat uydin qut-baraka ketib qoladi, degan tasavvurlar bilan bog'liq. Sotib olingan otni uyga kirgizishdan oldin tuyog'i va va oyoqlar baquvvat bo'lsin deb yerga va tuyoqlariga tosh urish odati bo'lgan (Karmmsheva, 1954. S. 105).

Uzbeklar orasida muqaddas jonivor - otning boshi turar joy tomonga qaratib bog'lansa, u o'z nafasi bilan uyga qut-baraka beradi deb hisoblangan. Ot nafasi ba'zi xastaliklarga ham davodir. Xalqda ot boshiga qamchi bilan urish gunoh ishlardan biri hisoblanadi. Muchal yillaridan bo'lmish ot yili qadimda qutli,

barakali keladi, deb ishonilgan. Qizlar tushida ot ko'rsa, unga sovchi keladi, yigit tushida otni ko'rganida esa uning martabasi ulug' bo'ladi, deb hisoblashadi. Chaqaloq bo'yniga yaxshi niyat bilan ot tolasini bog'lab qo'yishgan. Homilador ayollarni insu jinslardan asrash niyatida magik himoya vositasi sifatida uning tepasiga ayg'ir yugani ilib qo'yilgan (Ashirov, 2007. 23-b.).i O'zbek xalqining islomgacha bo'lgan qarashlari va diniy e'tiqodlarini tarixiy-etnologik jihatdan tadqiq etish orqali biz xalqimizning islomdan oldingi madaniyati, mafkurasi, an'analari va urf-odatlari haqida birmuncha mufassal tasavvurga ega bo'lamiz.

Xulosa

Har bir avlod xalqning madaniy, ma'naviy idrokini ruhiga singdira olsagina, uni o`zidan keyin kelayotgan inlarga yetkazish tadorigini ko`radi. O`zi bilmasa, keyingilarga ham ravo ko`rmasligi aniq. Buning natijasida har qanday yaxshi rasmlar ham asta-sekin e'tibor topmay, qadrlanmay, nazardan chetlashib, yo`qolib ketadi. Ular yo`qolishi barobarida xalqning ruhiyatida qadimdan, ota-bobolaridan meros sifatida saqlanib kelgan fazl-u fazilatlar ham, xosus xususiyatlar ham unutiladi. Ming-ming yillar davomida shakllangan urf-odat, marosim, adabiyot-san'at muallaq holda, o`zga xalqlardan bekatiqcha paydo bo`lib, rivojlanmagan. Aksincha, biz bilan qadimdan yonma-yon, jon qo`shni sifatida hayot kechirib kelayotgan qardosh qozoq, qiro`iz, turkman, tojik va ozarbayjon xalqlarining bevosita ishtiroki, hamrohligida yaralgan, taraqqiy topgan, hatto jahonning ko`plab boshqa xalqlari vakillarining ham bu qadimiy madaniyatning taraqqiy topishida muayyan hissi bor.

Aslida, udumlar, ahanalardan kyzda tutilgan maqsad nima? Udumlarning hayotdagi o`rni, mavqei qanday bo`lishi kerak? Biz turli zamonlarda turlicha siyosatdan kelib chiqib, muayyan g`oyalar yaratamiz. Bu g`oyalarni mafkura darajasiga ko`taramiz, qonunlashtiramiz. Udum ham qonun. Udum ham mafkura. O`zbek udumlari yozilmagan qonunlar bo`lsa-da, hamisha yashaydi va ishlaydi. Bu - abadiy mafkura! Nazarimda, bizni ming yillar davomida balo-qazolardan asrab kelgan ham, boshi berk ko`chalarga kirib qolmasligimizni ta'minlagan ham shu udum, an'ana, xalqona donishmandlik namunasi bo`lgan buyuk didaktikadir. «O`zbek udumlari», ayniqsa, millatning kenja bo`g`iniga dastlabki ma'rifiy ma'lumotlar sifatida juda zarur, juda kerak. Faqat bu asarning qadriga yetib, birinchi navbatda, Xalq ta'limi vazirligi mavjud «Milliy istiqlol g`oyasi», «Odobnoma», «Dinshunoslik» dasturlariga hamohang «o`zbek udumlari»ni ham ta'lim tizimiga kiritishi lozim. Oliy va o`rta maxsus ta'lim vazirligi ham litsey, kollej, institutlar dasturlariga kiritib, udumlar targ`ibotiga jiddiy e'tibor qaratsa, nur ustiga a`lo nur bo`lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳ-дид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Тошкент, 1997.
2. Каримов И. А. Маънавий юксалиш йўлида. Тошкент, 1998.
3. Каримов . И. А . Тарихий хотирасиз келажак йук. Т. «Ўзбекистон» 1999
4. Чебоксаров Н. Н., Чебоксарова И. А. Народн, расн и культурн. М., 1971.
5. Бурк С. И. Население мира. М., 1981.
6. Марков Г. Е. Кочевники Азии. М., 1976.
7. Марков Г. Е. История хозяйства и материальной культурн. М., 1976.
8. Занятия и бнт народов Средней Азии. Среднеазиатский этнографический сборник. М.-Л., 1971.
9. Толстов С. П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. Тошкент, 1964.
10. Толстов С П Древний Хорезм. М., 1948.
11. Толстов С П. По древним дельтам Окса и Яксарта. М., 1962.
12. Ходжайов Т. К. Этнические процессн в Средней Азии в эпоху Средневековья. Т., 1987.
13. Якубовский А. Ю. К вопросу об этногенезе узбекского народа. Ташкент, 1941.
14. Народн Средней Азии и Казахстана. Т. 1-2. Серил «Народн мира», М.-Л., 1962.
15. Очерки общей этнографии. М., 1967 - 68 гг. Т.: «Азиатская часть СССР».
16. Бромлей Ю. В. Современнне проблемн этнографии, 1981.
17. Токарев С. А. Этнография народов СССР. М., 1958.
18. Поляков С. П. Историческая этнография Средней Азии и Ка-захстана. М., 1980.
19. Итс Р. Ф. Введение в этнографию. Изд. второе. Л., 1994.
20. Данияров А. Х. Организация и развитие этнографической на-уки в Узбекистане. Т., 2002.

21. Шониёзов К. Ш. Қанг давлати ва қанглилар. Т., 1990.
22. Шониёзов К. Ш. Қарлуқ давлати ва қарлуқлар. Т., 1999.
23. Шаниязов К. Ш. К этнической истории узбекского народа. Т., 1974.
24. Шониёзов К. Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. Т., 2001.
25. Аҳмедов Б. Государства кочевых узбеков. М., 1965.
26. Аҳмедов Б. Ўзбек улуси. Т., 1992.
27. Саъдуллаев А., Кабиров Ж. Ўрта Осиё археологияси. Т., 1990.
28. Саримсоқов Б. Узбек маросим фольклори. Т., «Фан», 1986.
29. Сатторов М. Ўзбек удумлари. Т., «Фан», 1993.
30. Садикова Я. Национальная одежда узбеков. Т., «Шарк», 2003.
31. Қорабоев У. Ўзбек халқи байрамлари. Т., «Шарк», 2002.
32. Карабаев У. Этнокультура. «Шарк», 2005.
33. Джаббаров И. Обществениннй прогресс, бнт и религия. Таш-кент, 1973.
34. Джаббаров И. Из истории этнографического изучения узбеков в дореволюционннй период. Научние трудн ТашГУ, выш. 482, Т., 1976.
35. Джаббаров И., Дресвянская Г. Духи, святне, боги Средней Азии. Очерки по истории религии. Ташкент, 1993.
36. Ўша асар. Хитой тилида. Ланчжоу, 2002. И. Жабборов сўз бо-шиси билан.
37. Жаббаров И. Ўзбек халқи этнографиясини ўрганиш тарихидан. Тошкент, 1959.
38. Жаббаров И. Кўхна харобалар сири. Тошкент, 1961. II нашри, Тошкент, 1968.
39. Жаббаров И. Такдирин инсон ўзи яратур. Тошкент, 1982.
40. Жаббаров И. Жаҳон халқдари этнографияси. Т., 1985.
41. Жаббаров И. Рухий олам: жаҳолат ва камолат. Т., 1988.
42. Жаббаров И. Ўзбек халқи этнографияси. Т., 1994.
43. Жаббаров И. Этнография ва жаҳоннинг этник қиёфаси. Т., 1982.
44. Жаббаров И. Антик маданият ва маънавият хазинаси. Т., 1999.
45. Жаббаров И. Буюк хоразмшоҳлар давлати. Т., 1999.

46. Жабборов И., Жабборов С. Жаҳон динлари тарихи. Тошкент, «Ўзбекистон», 2002.
47. Жабборов И. Ўзбеклар: турмуш тарзи ва маданияти. Тошкент, «Ўқитувчи», 2003.
48. Жабборов И. Жаҳон этнологияси асослари. Тошкент, «Янги аср авлоди», 2005.
49. Поляков С.П. Историческая этнография Средней Азии и Казах-стана. М., 1980.
50. Турдумуродов Я.А. Узбекларда «От топирчи» билан боглик халк удумлари ва карашлари. 2010-йилги ёш олимлар конференцияси материаллари.
51. Исхоков . Б . «Авесто» да атроф-мухит билан боглик карашлар .. Самарканд-2010.